



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

“O'ZBEKISTON TARIXI ” KAFEDRASI

**“ Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti
va ijodiy merosi” *mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5220200-Tarix ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi

Allamov Nurbek Abdullayevich

ILMIY RAHBAR:

A. Boqiyev

TERMIZ-2013

REJA:

KIRISH.

I.BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA SIYOSIY-ILMIY FAOLIYATI.

1.1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va siyosiy faoliyati.

1.2. Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'рни.

II. BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ BOBURNOMA” ASARI MUHIM TARIXIY MANBA.

2.1. Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma” asarining mazmun va mohiyati.

2.2. Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma” asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligiga erishgach, zamonaviy davlatchilik tizimini barpo etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu ustivor yo`nalishdagi jadal harakatlarni amalga oshirishidan o`zbek xalqining davlatchilik sohasida to`plagan ko`p asrlik boy tarixiy tajribasini atroflicha o`rganish va undan samarali foydalanish masalasi o`zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlariidek, "o`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur".¹

Prezidentimiz har bir o`zbek farzandi "mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimizning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turushi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan".² Ayniqsa mustabid tuzum davrida "... Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?"³ degan savollarni o'ziga-o'zi berishi kerakligini qayta-qayta uqtiradi. Bu masalada "O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo'qmi?"⁴ degan zaruriy savolni beradi va sho'rolar davrida o'zgalar yozib bergan soxta g'oyalar asosida yozilgan tarixni qayta ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

Prezintimiz I.A.Karimov rahnomaligida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy-ma'naviy merosni asrab avaylash va boyitish, davlatchiligimiz tarixini chuqur o`rganish, o'zligimizni anglash va namoyon etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mustaqillikdan keyin nafaqat vatanimiz tarixida, balki, jahon tarixi ilm fanida yorqin iz qoldirgan Zahriddin Muhammad Bobur siymosini ulug'lash, uning ilmiy merosini o`rganish va undan foydalanish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov 1990-yil 5-iyunda hali

¹ Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti,1998-yil. 134-bet.

² Karimov.I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 1998-yil. 136-bet.

³ Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-yil. 6-bet.

⁴ Karimov.I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti,1998-yil. 137-bet.

mustaqil bo'lmashimizdan bir yil oldin so'zlagan nutqlarida tarixiy meros to'g'risida shunday deganlar: “Xalqimiz respublika hukumatining Navoiy, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy, va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileyleri o'tkazish to'g'risidagi qarorini juda ruhlanib kutib olgani bejiz qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan endi va bundan keyin ham xizmat qiladi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz”.⁵

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “ Boburnoma “ alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy, tabiiy va adabiy lingvistik ma'lumotlar xazinasidir unda 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish jangu-jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy –tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o'zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir. Shoir o'z xotiralarini badiiy naql uslubida sodda va ravon bayon etadi, o'nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi; tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, sheriylar parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxsning portreti kiyinishini, tashqi ko'rinishini, fel-atvorini, odatlarini, o'tmishini avlod-ajdodini birma-bir ta'rif etiladi. Asardagi markaziy obraz Boburning o'zi, albatta. Uning his – tuyg'ulariga boy qalbi ko'z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “ Boburnoma” va uning muallifi haqida “Uning his tuyg'ulari har qanday mubolag'adan yoki pardalashdan holi, uslubi oddiy mardona, shu bilan birga jonli

⁵ Karimov.I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.2011-yil. 217-bet.

va ifodali. O'z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko'zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni zabt etilishiga asli zoti temuriylardan bo'lmish Bobur va uning hamrohlari jasorati tufayli erishildi. Uning yoshlik yillari ham ana shu irqqa mansub qabilalar orasida o'tganligi uchun davlatni boshqarish va idora qilish uslubida ham bu cho'l o'g'loni faoliyatida ikki ulkan qabila mo'g'ullar va o'zbeklarning ta'siri sezilib turadi.⁶ Temuriylarning ikkinchi poytaxti Hirotning Shayboniyxon tomonidan istilo qilinishi Boburshohning Hindistonga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortgan edi. Shunday bo'lishiga qaramay, u Hindistondagi ulkan mamlakatni 1526-yilda o'z idorasi ostiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Boburshoh 1519-1525-yillarda Hindistonni egallash uchun hal qiluvchi keng miqyosli beshta jangni amalga oshiradi. Bu ulkan mamlakatni bo'ysundirish nihoyatda og'ir kechadi. "Boburnoma"da muallif ilgari Hindistonni fath etgan Sulton Mahmud G'aznaviy va afg'onistonlik Shahobiddin Muhammad G'uriylarning harbiy qudrati o'zining imkoniyatlaridan nihoyatda yuqori bo'lganini takidlaydi. Unda qayd, etilishicha Sulton Mahmud G'aznaviy Hindistonga yurish qilganida, Hurosondagi ulkan mamlakat, Xorazm vohasi va Samarqand unga tobe edi. Son jihatdan nihoyatda katta bo'lgan qo'shini yuz ming ikki yuz ming kishiga etar edi. Sulton Shahobiddin G'uriy bu mamlakatga hujum qilganda, uning ukasi Xuroson mamlakatining podshosi edi. U bir yuz yigirma minglik qo'shin bilan bu o'lkaga kirib keldi. Har ikkala hukmdorga qarshilik ko'rsatgan Hindiston rojalari bo'lib, bepoyon bu mamlakat yagona boshqaruv ostida birlashmagan edi. Boburshoh sarson – sargondonchilikning alamli kunlarini boshidan kechirib, vaqti-vaqti bilan ko'plab talofat ko'rib yurt va saltanat ishtiyoqi bilan Hindistonga yuzlandi. Uning idorasi ostida bo'lgan Badahshon, Qunduz, Qobul va Qandahar viloyatlari zo'rg'a o'zini tutib turar, bu viloyatlar yuz ming kishilik qo'shinga ega bo'lgan shayboniylarga yaqin bo'lganligi uchun ularga

⁶ U.Erskin. Bobur Hindistonda. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti. 1995-yil. 6-bet.

madad kuchlarini yuborib turush zarurati mavjud edi. Boburshoh 1525-yilda beshinchi marta hal qiluvchi hujum uyushtirganda Hindiston mamlakati Behradan Bahorgacha Sulton Ibrohim Lo'diy u nomi Afg'o'n tasarrufida edi. Boburshohning o'n ikki ming kishilik lashkariga uning yuz ming kishiga yaqin azamat qo'shinini va mingta jangovor fili qarshi turar edi.

Panjob viloyati zabt etilgandan so'ng Dehli Sultoni Ibrohim Lo'diyga qarshi kurashda Boburshohning kuchli harbiy salohiyatti unga omad keltirdi. U "to'g'ama" deb nomlangan harbiy tadbirini amalga oshirib, Ibrohim Lo'diyga qattiq shikast yetkazadi. Ikki uch oy Vatanidan yiroqda bo'lgan yigitlarning sustligini ko'rib, Boburshoh ular oldida otashin nutq so'zladi. Barchaning ruhini ko'tarib, ularni jangga safarbar qiladi. Zambaraklarni ishga soladi va otliqlardan mohirlik bilan foydalanib, Panipatda Ibrohim Lo'diyni mag'lubiyatga uchratadi. 1526-yil 25-aprelda Dehlida Boburshoh nomiga hutba o'qiladi. Shu bilan u yangi sulola boburiylar sulolasining ulkan mamlakatiga asos soladi va Hindistonday ulkan mamlakatda turli din va millat vakillaridan tashkil topgan xalqlarning yagona markazlashgan davlat boshqaruvi ostida uzil-kesil birlashtiradi. Boburshoh va uning avlodlari Hindistonning xo'jalik hayoti, madaniyati va obodonchiligiga katta e'tibor bilan qarashdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan tarixiy, geografik, etnografik, toponomik ma'lumotlar orqali XV-XVI asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy holat haqida qimmatli ma'lumotlarni bugungi davr nuqtayi-nazaridan yondashib tahlil qilish va tariximizni xolisona o'rginishda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiriruv malakaviy ishining maqsadi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan 1494-yildan 1530-yilgacha yozib tugallangan "Boburnoma" asarining muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lsada, mustaqillik davrigacha tadqiqotchilar tomonidan maxsus tahliliy tarzda o'rganilmaganligini e'tiborga olib, bu sohadagi kemtiklikka biroz bo'lsada barham berib, asardagi tarixiy voqealarni o'sha davrga oid bo'lgan muhim tarixiy manbalarga solishtirib o'rganib, tahlil natijalarini atroflicha yoritib berishga

qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishda qo'yilgan maqsad va vazifaga muvofiq quyidagi masalalarni ko'rib chiqish rejalashtirilgan:

Birinchidan, Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va siyosiy faoliyatini mavjud tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida o'rganish. Mirzo Boburni buyuk olim darajasiga ko'targan tarixiy omillarni mohiyatini ochib berish.

Ikkinchidan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining mazmun va mohiyatini, tarixiy va ilmiy ahamiyatini atroflicha tahlil qilish.

Mavzuning tadqiq qilganlik darajasi. Tadqiqotning nazariy asosini Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va mavzuga doir bildirgan fikr hamda nutqlari tashkil etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov doimo o'zlarining asarlarida jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalariga e'tibor bergan holda, o'tmish tariximizning haqqoniy yoritilishiga tarixchi olimlarimizning diqqat –e'tiborlarini tortib kelganlar. Tadqiqotchilardan Abdullayev M., U. Erskin, L.P. Sharma, Hoshimov I., Nuritdinov M., Hasanov. X., Qudratullayev H. Hasanov., Nafasov T., Rasulov R., Fayziyev.T., Mamajonov A.M., Vahob Rahmonov⁷ va boshqalar o'z tadqiqotlarida "Boburnoma" asarining ba'zi jihatlarini ochib berganlar.

Tadqiqotlarning mazmun va tavsifi shundan guvohlik beradiki, Boburning "Boburnoma" asari vatanimiz tarixshunosligida to'liq o'rganilmagan. Xuddi mana shu hol mavzuni tarixiy tadqiqot obekti sifatida tanlab olishga undadi va

⁷ Abug'oziy. Shajarai turk. Toshkent. Cho'lpon.1992-yil. 95-96-betlar., Abdullayev M. Boburnoma va Shajarai turning qiyosiy poetikasi. 56-58-bet., U. Erskin. Bobur Hindistonda.Toshkent. Cho'lpon nashriyoti. 1995-yil. 8-bet., L.P. Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. "Ma'naviyat" 1998-yil 22-bet, Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi-1994-yil 48-bet Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. Fan-1994-yil 68-66-betlar., Hasanov. X. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O'zbekiston. 1983-yil 58-bet., Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Tosh. Sharq.2011-yil 27-bet, Fayziyev.T. Temuriy malikalari. Toshkent 1994-yil, Hasanov. H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O'zbekiston.1983-yil 62-bet., Rasulov R. Bobur – o'zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi./ ilmiy to'plam. Samarqand. 2000-yil 44-bet., Nafasov T. Bobur nomshunos. / Ilmiy to'plam. Samarqand 2000-yil 39-bet., Mamajonov A.M. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 1994-yil 20-bet., Fayziyev T.Xusayn Bayqoroning sirli o'limi. Toshkent 1995-yil 44-bet., Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. Nashrga tayyorlovchi N. Ibrohimov. Toshkent 1996-yil., T. Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent. Yozuvchi-1995-yil. Vahob Rahmonov "Ma'rifat " gazetasi 2008-yil.

shulardan kelib chiqib, Bobur hayoti va siyosiy-ilmiy faoliyati hamda “Boburnoma” asari tadqiqot mavzusi qilib belgilab olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tadqiqot uchun tanlab olingan mavzu, uning tarkibiga kirgan qator muhim muammolar to`liq, yaxlit holda maxsus tadqiqot qilinmagan. Shu bois tadqiqotda ana shu holat hisobga olinib, hozirgacha yaratilgan mavjud adabiyotlar, maqolalar asosida tadqiq etilayotgan davr ichida Boburning hayoti va siyosiy-ilmiy faoliyati hamda “Boburnoma” asari maxsus ilmiy tahlil qilinmoqda. Mavzuga doir materiallar ham jamlangan holatda tadqiq qilinmoqda.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotda tadqiq etilayotgan muammodagi “Boburnoma” asari Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy asari bo`lib, unda XV-XVI asrlarda temuriylar saltanati tarkibiga kirgan hududlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi va geografiyasiga oid ma`lumotlar bilan birgalikda ko`pgina tarixiy shaxslar haqida ma`lumotlar bayon etilgan. Asarda bayon etilgan faktlarning qanchalik darajada haqqoniyligini tekshirishda o`sha davr tarixiy manbalari imkon darajasida qiyoslashga harakat qilinganligi sababli katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Tanlangan bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 paragraf, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I.BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA SIYOSIY-ILMIY FAOLIYATI.

1.1.Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va siyosiy faoliyati.

Zahiriddin Muhammad (hijriy 888-yilda muharram oyining oltinchi kuni) milodiy 1483-yilning 14-fevralida dunyoga keldi. Uning ismi o'sha davrdagi Movarounnahrning atoqli ulamolaridan bo'lgan Xo'ja Nasriddin Ubaydullaxon tanlagan edi.

Bobur shajarasi: Ota tomonidan : Bobur Sulton Umarshayx Mirzo o'gli, u esa Sulton Abdusaid Mirzo o'g'li, u esa Sulton Muhammad Mirzo o'g'li, u esa Mirzo Miranshoh o'g'li, u esa Amir Temur o'g'li edi. Onasi tomondan :Qutlig' Nigor Xonim Yunusxon qizi, u esa Vaysxon o'g'li, u esa Sher Alixon o'g'li, u esa Muhammad Xo'jaxon o'g'li, u esa Xizir Xo'jaxon o'g'li, u esa To'g'liq Temurxon o'g'li, u esa Eson Bug'axon o'g'li, u esa Dava Chiqon o'g'li, u esa Baroqxon o'g'li (uni G'iyosiddin ham deb atashardi), u esa So'kach o'g'li, u esa Kamg'or o'g'li, u esa Chig'atoy o'g'li, u esa Chingizxon o'g'li edi.

Aytishlaricha, chig'atoylar arabcha “ Zahiriddin “ so'zini talaffuz etishda qiynalishgach, ota-onalari uni Bobur deb atadilar va rasmiy hujjatlarda Zahiriddin Muhammad Bobur deb yuritilardi.⁸

Otasi vafot etganda u endigina o'n bir yoshdan o'tgan edi. Farg'ona davlati hozir (muallif 1845-yilni nazarda tutmoqda) Qo'qon deb yuritiladi. U paytlarda bu mamlakat hududdan kichikroq bo'lsa ham Boburning tarflashicha, meva va g'allaga boy o'lka edi. Bu vodiyning atrofi tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, janubiy g'arbiy tomonigina Xo'jand va Samarqand orasi, Sayhun daryosining chap qirg'oqlari ochiq edi. Bu daryo Sir deb ham ataladi. U qadimgi Yaksartes daryosi bo'lib Qashqar tog'laridan boshlanadi va Farg'ona davlatini ikki qismga ajratib oqadi.

⁸ U. Erskin. Bobur Hindistonda.Toshkent. Cho'lpon nashriyoti. 1995-yil. 8-bet.

Toshkent va Turkiston vohalarini yalab o'tib, cho'llar orqali Orolgacha yetib boradi. Farg'ona mamlakati, asosan, yettita dahaga bo'linib, undan ikkitasi daryoning shimoliy qirg'og'ida, qolgan beshtasi esa janubiy sohilda joylashgan. Janubdagi viloyatlarning eng yirigi Andijon bo'lib, Saltanatning poytahti hisoblanardi va shu nom bilan ataluvchi asosiy qal'a xizmatini o'tar edi. O'sh viloyati sharq tomonda joylashgan, Marg'ilon esa g'arbda joylashgandir. Isfara janubi- g'arbiy qismida tog'lar orasida joylashgan va nihoyat Xo'jand qal'asi daryoning quyi qismida bo'lib, Samarqand yo'li ana shu yerdan o'tadi. Daryoning shimoliy qismidagi viloyatlar Axxi va Koson edi. Axxi saltanatdagi ikkinchi mavqeyni egallaydigan qal'a bo'lib, Umarshayx Mirzo ko'p vaqtini o'sha yerda o'tkazar edi. Undan shimoliy sharqda Koson kasabasi joylashgan.

O'zi kichkina davlat bo'lsa ham Farg'ona tuprog'i juda unumdor, mo'tadil iqlimli edi. Yozda issiq va qishda sovuq bo'lsa ham, mo'l g'alla va meva, nok, anor, bodom va qovunga boy edi. Uning bog'lari va uzumzorlari mashhur edi. Farg'ona davlatida shahar aholisi tojiklar deb atalib, ular hech qaysi qabilaga mansub emas edilar. Keyinroq Mo'g'ul va turkiy qabilalarning ko'payishi bilan shaharliklarning ko'pchiligi turkiylar bo'lib, tili ham sof turkiy bo'lgan. Bu til davlat boshqaruvchilarning ham so'zlashuv tili bo'lib, o'z ona tili fors tili bo'lgan shaharliklar uchun ham tushunarli edi.⁸

Umarshayx Mirzo Temuriy hukmdorlar orasida toj-taxt kurashlari keskinlashgan bir davrda Farg'ona viloyatini idora qildi va bu kurashda faol ishtirok etdi. Pokiza etiqodli, Hazrat Xo'ja Ubaydulloga orodati bor, ravon savodli bu temuriyzoda Boburning ma'lumotiga bo'lgan qal'a bo'lib, podshoh ko'p vaqtini o'sha yerda o'tkazar edi. ko'ra: " Xamsatayn va mansaviy kitoblarni va tarixlarni o'qib edi. Aksar " Shohnoma " o'qir edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi."⁹ Tabiatida "Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor " bo'lgan Umarshayx Mirzo yurt talablik davosi bilan Samarqandga bir necha bor yurish qiladi. Farg'ona viloyatining osmonida urush bulutlari qalqib yurgan damlarda fojiali vafot etadi.

⁹ L.P.Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. "Ma'naviyat". 1998-yil 10-bet.

Bu voqea 1494-yilda sodir bo'ldi. Umarshayx Mirzoning ukasi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon o'zaro ittifoq tuzib Farg'ona viloyatiga yurish boshlaydi. "Boburnoma" da Sulton Muhammad va Sulton Ahmadning "Umarshayx Mirzoning badmaoshlig'idin mutazarir" ko'rganliklari bunday harakatning sababi sifatida keltiriladi. Axxi qal'asi Umarshayx Mirzo saltanatida Andijondan keyin ikkinchi mavqega ega

Bobur Mirzoning mamlakatda osoyishtalikni barqaror qilish uchun juda ko'p ter to'kishiga to'g'ri keldi. U mahalliy hukumdorlarning o'zboshimchalikka yuz burushlari avjiga chiqqan davrda Farg'ona viloyatini idora qilmoqda edi. Bunday boshboshdoqchilik taxt sohibi hayoti uchun ham nihoyatda tahlika solardi. Boburning ukasi Jahongir Mirzoni shoh qilish maqsadida fitna uyushtirgan Husayn Ya'qub boshchiligidagi beklar unga qarshi suiqasd uyushtirishdi. Bobur va uning ta'rafdorlari sa'yi harakati bilan fitna o'z vaqtida fosh etildi, qo'lga olingan isyonchi beklar jazolandi. Yovuz niyati amalga oshmaganidan alamzada bo'lgan Hasan Ya'qub Samarqand sari yo'l oladi. Biroq qabih maqsadi yana xuruj qilib Axxi tomon kelganida, Qo'qon yaqinida Vafot etadi. Bobur Mirzo katta va notinch viloyatni boshqarish uchun Andijon atrofidagi shaharlarda bir necha marotaba yurishlar qilishga majbur bo'ladi.¹⁰

1495-yilda Sulton Ahmad o'rnida bir muddat hukmronlik qilgan ukasi Sulton Mahmud vafotidan so'ng, uning o'g'illari Ma'sud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Ali o'rtasida Samarqand taxti uchun o'zaro urushlar boshlanadi. Sulton Ali Samarqandni egallaganda, bu urush alangalari yanada avjiga chiqa boshlaydi. Bobur Mirzo ham ulug' sohibqiron Amir Temur poytaxtini qo'lga kiritish ilinjida Samarqand tomon lashkar tortadi. Bu payt Sulton Mas'ud Mirzo Shahrisabzni o'z idorasi ostiga olib, Samarqandga tahdid sola boshlagan edi. Hisor va Qunduzdan Sulton Husayn Mirzo qo'shinining xavfi ham mavjud edi. Uch-to'rt oy uch tarafdin Samarqandga qarshi hujum uyushtirgach, Sulton Ali nomidan Xoja Yahyo

¹⁰ Quadratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Toshkent. Sharq. 2011-yil 56-bet

kelib, ittifoq va hamjihatlikdan so'z ochadi va Bobur Mirzo bilan o'zaro kelishuvga erishadi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, Samarqand taxtini Boysung'ur Mirzo qo'lga kiritadi.

1497-yilda Bobur Mirzo mingga yaqin qo'shini bilan Samarqandni qo'lga kiritish uchun jangga o'tlanadi. Shahar u yeti oy qamal qilinadi. Boysung'ur Mirzo Shayboniyxondan madad kutadi, biroq Shayboniy qo'shinlarining yordami besamar ketadi. Natijada shahar hukmdori Qunduzga Xusravshohdan panoht izlab ketishga majbur bo'ladi. Bobur Mirzoni Samarqand shahri ulug'lari, beklar mamnuniyat bilan qarshi oladilar. "Boburnoma" da muallif bu voqeani iftixor bilan quyidagicha bayon etadi: "Rabiulavval oyining oxirida (1497-yil noyabr) kelib arkta Bo'stonsarog'a tushtum. Tangri taoloning inoyati bila Samarqand shahri va viloyati muyassar va musaxxar bo'ladi" (43-bet). Sharqning eng yirik, boy va mashhur shaharlaridan biri bo'lgan Samarqandning qo'lga kiritilishi yosh hukmdorni nihoyatda sevintiradi. U keyinchalik "Boburnoma" da bu azim shaharning tabiati-yu masjid va madrasalarini, Ulug'bek Mirzo barpo etgan rasadxona-yu saroy va maqbaralarni ehtiros bilan tasvirlaydi. Afsuski, Bobur Mirzoning sevinchi uzoqqa cho'zilmaydi. _ U yetti oy qamal ichida qolgan shahar nihoyatda xarob holda edi. Ozuqa zahiralari tugagan, dehqonchilik o'zaro urushlar natijasida izdan chiqqan, shahar aholisi aftoda bo'lib qolgan edi. Yosh hukmdor bu ahvoldan qutilish choralarini qanchalik izlamasin, biror maqbul tadbirni amalga oshirish imkondan tashqari edi. Bobur Mirzo qo'shinlari Samarqanddan hech qanday o'lja qo'lga kiritolmaydi. Avvalo, hukmdorning o'zi xalqni talashga mone'lik qiladi. Oqibatda oziq-ovqat tanqisligi seziladi, shuningdek, askarlar uylarini sota boshlaydilar. Bitta-bitta bo'lib qochishga tushadilar. "Boburnoma" da ta'kidlanishicha, avval Xonquli Bayonquli, yana Ibrohim Bekchik, keyin esa mo'g'ullarning barchasi qochadi. Sultan Ahmad Tanbalning qochishi yosh hukmdorga qarshi yana bir fitnaning uyushtirishiga omil bo'ladi.¹¹

¹¹ L.P.Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. "Ma'naviyat". 1998-yil 15-bet.

Bobur Mirzo Xo'ja Abdullo Mavlono qozini qochoqlarning ba'zilarini jazolash, ba'zilarini esa qayta Samarqandga yuborish niyatida Uzun Hasanning oldiga jo'natadi. Biroq Uzun Hasan Bobur Mirzoga qarshi uyushtirilgan fitnaga boshchilik qilmoqda edi. Bu orada u Ahmad Tanbal bilan til biriktirib, Axsi va Andijonni Jahongir Mirzoga olib berish payida bo'ladi.¹²

Andijon taxti tobora tahlika ostiga qola boshlagan davrda Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim va Eson Davlatbegim bilan kengashib, Samarqand hukmdoriga bir necha marta maktub yuboradilar. Natijada Samarqanddek shahari azimda yuz kun hukmdorlik qilgan Bobur Mirzo 1498-yilning fevralida Andijonga safar qilishga majbur bo'ladi. Bu orada bir kishi yosh hukmdor Samarqandni tashlab chiqqan kuni Ali Do'st tog'ayi Andijonni isyonchilarga topshirgani haqidagi xabarni yetkazadi. Ma'lum bo'lishicha, isyonchilar Andijonni qamal qilganda, Uzun Hasan Bobur Mirzoning betobligi, uning tili tutilib, og'ziga paxta bilan suv tomizayotganliklarini Ali Do'st tog'ayiga aytib ont ichadi. Bundan sarosimaga tushgan tog'asi Ali Do'st isyonchilarga qal'ani ochib beradi.

Andijonni deb Samarqandni qo'ldan ketkazish va taqdirning alamli hazillariga duchor bo'lib bir yo'la har ikkalasini boy berishdek muvaffaqiyatsizlig-u yutqazishlar metin iroda sohibi bo'lgan Bobur Mirzo belini bukolmaydi. U ota meros saltanatni tiklash niyatida tog'asi, Toshkent hokimi Mahmudxondan madad so'raydi. Birgalikda Andijonni egallash uchun olib borilgan janglar natija bermaydi. Bobur Mirzo goh Xo'jand, goh O'rtepa, goh Konibodom atrofidagi qishloqlarda bo'lib, tog'alarining ko'magi bilan ba'zan Andijonga, ba'zan esa Samarqandga tahdid solib turadi. Nihoyat, Xo'jandga yetib keladi, ammo bu yer nisbatan kichikroq qo'shinni zo'rg'a saqlab turushi mumkin edi. Shu sababli Bobur Mirzo O'ratepani idora qilib turgan yana bir tog'asi Muhammad Husayn Ko'ragon do'g'latdan Yor yayloq kentidagi Pashog'ar qishlog'ida qishlashga ruxsat so'raydi.

¹² U.Erskin. Bobur Hindistonda. Toshkent. "Cho'lpon". 1995-yil 102-bet

Bu yer Xo'ja Abdullo Mavlono qoziga qarashli bo'lib, u Samarqand yo'lida joylashgani uchun Bobur Mirzoga juda ma'qul manzil edi.

Movarounnahrda shahzodalar o'rtasidagi ziddiyatlar tobora keskinlashib bormoqda edi. Bunday muxolifat Sulton Ali Mirzo va Muhammad Majid Tarxon o'tasida ham paydo bo'ladi. Bu shahzodalar hamkorligidan hech ish chiqmasligi aniq edi. Sulton Ali Mirzo mo'g'ullardan Abdulvahob degan kishini Bobur Mirzo huzuriga yuborib uni Samarqandga kelishga etdi. Bobur Mirzo Jahongir Mirzoga kishi yuborib zudlik bilan Samarqandga yurish qilishini xabar qiladi. Axsida tuzulgan sulx Jahongir Mirzo tomonidan Bobur Mirzo saltanati hududiga dahl qilish imkoniyatini bermasdi. Biroq Bobur qo'shinlari Quvaga yetib kelganda, Ahmad Tanbalning ukasi Halil O'shga hujum qilgani ma'lum bo'ldi. Bobur Mirzo bo'lib o'tgan voqeadan qanchalik ranjimasin, Samarqand tomon yurishni yana davom ettiraverdi. Yosh hukmdor Ali Do'st va Qambar Ali singari ulug'beklarning keying harakatlaridan ularga tayanish har doimgidan ham yaxshilikka olib kelmasligini sezib qoladi. Shuningdek, Muhammad Majid Tarxon boshliq beklar ham Mir Mo'g'ulni yuborib Andijon hukmdorining Samarqandga kelishiga ko'z tikib turishgandi. Shunday qilib, Bobur Mirzo; "Samarqanddek poytaxt turg'uncha, ne kiroyi ul qilg'aykim, Andijondek yer uchun kishi avqot zoye' qilg'ay"-degan fikr bilan yo'lda davom etadi.¹³

Bir muddat Shahrizabz – Hisor hududlarida sarson sargardon kezgan Bobur Mirzo Samarqand xalqining ko'magiga ishonib, ikki yuz qirq kishilik navkari bilan shaharga hujum qiladi. Yetmish-sakson chog'li Bobur yigitlari tunda qal'aga Narvon qo'yib, Feruza darvozasini egallaydilar. Tong otishiga yaqin Bobur Mirzo Samarqandga kirib keladi. Bo'lib o'tgan voqeadan shahar ahli hali to'la habardor emas edi. Temuriy hukmdorini tanib qolgan dukondorlar u haqda duo qilishardi. Ko'p o'tmay shahar xalqi voqeadan xabar

¹³ L.P. Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. "Ma'naviyat" 1998-yil 22-bet

topadi. Qo'llariga tosh va tayoq ko'targan kishilar to'rt yuz-besh yuz chamasi Shayboniy tarafdorlarini o'ldirishadi. Nihoyat, u yetti ming askariy quvvatga ega bo'lgan tajribali hukmdor Shayboniixonon juda oz miqdordagi qo'shin bilan 19 yoshli temuriyzoda Samarqandni tortib oladi. Xalq Bobur Mirzoni qo'llab quvvatlashda davom etadi. Shovdor, Sug'd va atrofdagi qo'rg'onlar uning idorasi ostiga o'ta boshlaydi. Shayboniixon Buxoroga chekinadi. Bu orada Boqi tarxon Qarshi, G'uzorni, Abulmuhsin Mirzo Qorako'lni qo'lga kiritadi. Shayboniy qo'shinlari har tarafdin quvilib, Buxoro atrofida toplanishga majbur bo'lishadi.¹⁴

Bobur Mirzo Andijondan chiqqandan so'ng, uning oila a'zolari yuz tashvish va mashaqqatlar bilan O'ratepaga yetib kelishgandi. Samarqand fahtidan nihoyatda shodlangan yosh hukmdor oilasini bu azim shaharga olib keladi. U amakisi Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyisha Sultonbegimni o'z nikohiga olgan edi. Ko'p o'tmay Samarqandda To'ng'ich farzandi Faxruniso dunyoga keladi. Biroq bu shodlik uzoq davom etmaydi. Faxriniso chillasidan chiqmay vafot etadi.

Bobur Mirzo o'zini buyuk poytaxt taxtida ko'rib qanchalik quvonsa, har zamon tahdid solish xavfi kuchli bo'lgan Shaybomiixonning ulkan qo'shinidan ham shunchalik tashvishlanardi. Samarqand mudofaasini mustahkamlash maqsadida yon atrofdagi temuriylar saltanati hukmdorlariga elchilar yuborib, ulardan yordam so'raydi.

Shayboniixon 1501-yilning bahorida yana qo'shin to'play boshlaydi. Qorko'l, Dabusiyanini qayta qo'lga kiritib, Samarqandga tahdid soladi. Shu yili may oyining boshlarida Shayboniixon o'z hatti harakatlari bilan raqibini jang maydoniga jiddiy hozirlik ko'rishga majbur etadi. Boqi Tarxon ming ikki ming kishilik qo'shini bilan Keshga kirib borgan edi va ikki kun orasida Bobur Mirzoga kelib qo'shilishi taxmin qilinardi. Toshkent hokimi Sulton Mahmud tomonidan

¹⁴ Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi-1994-yil 48-bet

yuborilgan Said Muhammad Mirzo do'g'lat tomonga yaqin ming bir yarim ming kishilik lashkari bilan ko'makka kelishi kutilar edi. Munajjimlarning yanglish ma'lumotlari Bobur Mirzoni madadga chiqqan kuchlar yetib kelmasdan jangga kirishga undadi. Qo'shin to'rtga ajraladi. Ko'hak daryosi bo'yida raqib bilan ro'baro bo'linadi. Natijada Bobur Mirzo qo'shini juda katta talofatga uchradi.

Og'ir kunlar boshlanadi. Keyingi yillarda Samarqand tez-tez yuz berib turgan o'zaro urush va isyonlar tufayli boyliklari talangan, ancha kuchsizlanib qolgan edi. Shayboniyxonning besh oylik qamaliga qarshi Bobur Mirzoning o'ziga yaqin beklar va sarbozlari hamda xalq ommasi jasorat ko'rsatishlariga qaramay, ochlik, suvsizlik shahar aholisining tinka madorini quritadi. "Elga bisyor tanqislik bo'ldi, - deya xotirlaydi "Boburnoma" muallifi. – Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otqa bo'g'uz kam yoft bo'ldi. Daraxtlarning bargini otqa berurlaredi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog'I va qora yig'och yafrog'I otqa sozvarroq emish. Ba'zi quruq yig'ochlarni randa qilib, taroshasini suvg'a ivitib otg'a berurlar edi."

Oziqa zahiralari rugab, atrofdan biror bir madad kutishga umid qolmagach, sarbozlar bir ikki kishi bo'lib qocha boshlaydi. Bu orada Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Hech qanday umidi qolmagan Bobur Mirzo sulhga rozilik beradi. Parokandalikka yuz Burgan temuriy hukmdorlarining noahilligi tufayli ulkan g'alabasini mudofaa qila olmagan yosh shahzoda azim shahar Samarqandning Shayxzoda darvozasidan ichkilari bilan chiqib ketadi. Biroq Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim vujudga kelgan tang vaziyat taqozosiga ko'ra Shayboniyxonga turmushga chiqishga majbur bo'ladi.¹⁵ 1501-1502-yillar Bobur Mirzo hayotida sarson-sargardonlikning achchiq alamlari bilan qarshilashish davri bo'ladi. O'lim tahlikasidan zo'rg'a qutilgan yosh shahzoda va uning hamrohlari Jizzaxda ochlik shiddatidan ham bir muncha xalos bo'ladilar.

¹⁵ Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. Fan-1994-yil 66-68-betlar.

Samarqandga mustahkam o'rnashib olgan Shayboniyxon Toshkent xoniga qarashli Shohruhiya va Beshkentga hujum uyushtirganda, Bobur Mirzotog'asiga yordamga o'tlanadi. Sovuqning shiddatidan kunda ikki-uch kishi halok bo'lardi. Yosh shahzoda suvning tez oqishidan faqat o'rtasi muzdan bir oz xoli bo'lgan arig'da 16-marta sho'ng'ib atrofdagilarni ko'rsatgan jasorati bilan katta dushmaniga qarshi kurashga da'vat etadi. Shayboniyxon bahor kelishi bilan O'ratepani talab ketganida, Bobur Mirzo Maschoda edi. U bu yerda uysiz, vatansiz tog'lar orasida sarson-sargordon yurishidan naf yo'qligini o'ylab yana Sulton Muhammadxon oldiga borishga qaror qiladi. Xuddi shu payt Ahmad Tanbal o'z qo'shinlari bilan xonga qarshi yo'lga chiqqandi. Bu urush Sulton Muhammadni ancha cho'chitib qo'yadi. Bobur Mirzo Toshkent xoniga kichik tog'asi Sulton Ahmad Olachaxon bilan birgalikda Shayboniyxonga qarshi kurashish rejasini aytmoqchi bo'lib turgan paytda, Olachaxon bir yarim mingga yaqin navkar va Bobur Mirzoga mo'g'ulcha sovg'a-salomlar bilan kirib keladi. O'zaro elishuvga ko'ra Ahmad Tanbalga qarshi kurashda Bobur Mirzoga omad kulib boqadi. U osonlik bilan O'shni qo'lga kiritadi. O'zgand aholisi kishi yuborib shaharni yosh temuriyzoda ixtiyoriga topshirishadi. Marg'ilon xalqi shahr dorug'asini urib, quvlab yuboradilar. Shunday qilib, Andijonni hisobga olmaganda, Sirdaryo janubidagi Farg'ona viloyatining katta qismi Bobur Mirzoni o'z hukmdorlari sifatida tan oladi. Andijon qal'asini zabt etish uchun olib borilgan kurashda Ahmad Tanbalning Andijondagi hukmronligiga chek qo'yadi. Sulton Mahmudxon Andijon va daryoning quyi qismidagi yerlarni Sulton Ahmad Olachaxonga berishga qaror qilganini e'lon qiladi. Bobur Mirzoga esa Axsi beriladi. Shayboniyxonga qarshi kurashda Samarqand qo'lga kiritilgach, u yosh temuriyzodaga, Axsi esa Olachaxonga topshirilishiga kelishin olinadi. Shu orada Ahmad Tanbal Shayboniyxonga kishi yuborib, unga itoat qilishini va birgalikda mo'g'ul xonlariga qarshi kurashish istagini bildiradi. Shayboniyxonning Farg'ona viloyatiga yurish qilish haqidagi xabaridan sarosimaga tushgan mo'g'ul xonlari orqaga chekinadilar. Ularning O'sh va Marg'ilonda qo'ygan ishonchli kishilarini xalq haydab chiqaradi. Bobur Mirzo bo'lib o'tgan voqealarga qanday baho berishga hayron qoladi.

Vaziyatning o'z foydasiga hal bo'lganiga ko'zi yetgan Ahmad Tanbal bir kuni tongda uch ming qurolli qo'shini bilan yakkalanib Axxi qo'rg'onida qolgan Bobur Mirzoga qarshi tasodifan hujum qiladi. Ayovsiz va tengsiz jangda Bobur Mirzo qal'adan zo'rg'a qochib qutiladi. Axxi yaqinidagi sang degan manzilga yetganlarida, u hamrohlari bilan 8 kishini tashkil qilardi, xolos.¹⁶Xuroson mamlakati o'z davrining eng kuchli hukmdorlaridan bo'lgan Sulton Husayn Boqaro tomonidan idora etilardi. Bobur Mirzo ikki ukasi, jiyani Mirzoxon va jami ikki yuz-uch yuz kishilik hamrohlari bilan safarga o'tlanadi. Hisor vodiysi va Qunduz hukmdori Xusravshohga yuborilgan elchi undan "ko'ngulga yoqqudek so'z keltirmadi". Bu temuriyzodadan zulm ko'rgan ko'plab srboz va lashkarboshilar Bobur Mirzoga kelib qo'shila boshlaydi. Qabadiyonga yetib kelganida esa akasi Xusravshoh bilan arazlashib qolgan Boqi Chag'aniyoniy Bobur Mirzoga kishi yuborib uni o'z hukmdori sifatida tan oladi. Shayboniyxon Andijonni qo'lga kiritib, Hisor va Xurosonga hujum qilish xavfi tobora kuchayib borayotgan bir paytda, unga qarshi mardonavor kurasha oladigan Bobur Mirzoning shuhrati orta boshlydi. Husayn Boyqaroning Shayboniyxon hujumiga qarshi mudofaani mustahkamlash haqidagi Bobur Mirzoga yo'llagan xati ko'plab jang-u jadallar shohidi bo'lgan yosh shahzodani qanoatlantirmayidi. U kuchli g'anim ustiga birgalikda hujum qilish tarafdori edi. Shayboniy qo'shinlari shitob bilan Qunduz tomon yo'llanganini eshitgan Xusravshoh mudofaani ta'minlay olishiga ko'zi yetmay, shaharni tashlab chiqadi va Bobur Mirzoga odam yuborib, o'zining taslim bo'lganini ma'lum qiladi. Xusravshohdan yuz o'g'irgan askar va qabilalar hisobiga son jihatdan ancha ko'paygan, shuningdek, undan qolgan qurol, sovut, ot anjomlari bilan o'zini tiklab olgan Bobur Mirzo uchun o'zaro urushlardan kuchsizlanib qolgan Kobul taxtini egallash nihoyatda muhimedi. 1504-yilning oktabrida hududi ancha kichik bo'lgan Farg'ona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va G'aznani jangsiz qo'lga

¹⁶ Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi 1996-yil 17-bet

kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi.¹⁷ 1505-yilning iyun oyida Bobur Mirzoning onasi Qutlug' Nigorxonim vafot etadi. Bu davrda Hisor va Qunduzni bo'sundirgan Shayboniyxon Samarqandga borib yangi yurishlarga hozirlik ko'rmoqda edi. U Xorazmni bosib oladi, Balxni qamal qiladi. Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxonga qarshi kurashda Bobur Mirzoni ham taklif qiladi, lekin yarim yo'lda Bobur Husayn Mirzoning vafot etganini eshitdi. Bobur Hirotga kelib uning muqaddas masjid va madrasalarini, qasr va saroylarini maroq bilan tamosha qildi, olimu ulamolari bilan miriqib suhbatlashdi va 1506-yilda dekabr oyida tog' oralab Kobulga yo'l oldi. Qor yog'a boshlagan edi, bu yo'llardan esa hatto yozda ham yurish mashaqqatli edi. Boburning aql-zakovati, oldindan ko'ra bilish hissiyoti uni bir daqiqa hamvaqtni boy bermay, shiddat bilan olg'a yurishga undar edi. Qor kundan kun qalinlashib, otlarning tizzasiga, keyinroq esa qornigacha ko'tarildi, buning ustiga ularning yo'lboshchisi yo'lni yo'qotib qo'ydi.

Qobulga yaqinlashganlarida Xuroson safari oldidan Boburning ko'ngliga kelgan ba'zi shubha va taxminlari to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi noxush xabarlar eshitdi. Xurosonga jo'nashdan oldin Bobur Mirzo xolasining eri bo'lmish Muhammad Husayn Mirzo Dug'latni huzuriga chorlab, safar davomida Kobul va uning viloyatlarini nazorat qilib turishni unga topshirgan edi. Husayn bu taklifni qabul qilishdan oldin shahzodaga bildirilgan ishonch uchun minnatdorchilik izhor qilib, Makkaga haj safarini mo'ljallayotganini aytdi va lekin shahzoda buyursalar, undan voz kechishi mumkinligini ta'kidladi. So'ngra Bobur uning viloyatlar bilan aloqasini engillashtirish maqsadida o'zining yaqin kishilaridan Nizomiddin Xalifa, Mulla Bobo Poshog'ariy, Mir Ahmad Qosim Kuhbur va boshqalar bilan tanishtirdi va Muhammad Husayn Mirzoga hokimiyatni topshirib safarga otlangan edi.

¹⁷ Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Toshkent. Sharq. 2011 24-bet

Safarga jo'nalgach, bir necha oy davomida Xuroson va Qobul orasida xabarlar kelib-ketib turdi. Qobul saroyida turli xil mish-mishlar tarqalishiga sabab bo'ldi. Go'yoki Xuroson beklari va mirzolari Boburni xibsga olib, zindonga tashlagan emishlar, va u yerdan Boburning qutilib chiqishi amri mahol emish bundan xabar topgan Boburning buvisi Shohbegim o'zining suyakli nevarasi Xon Mirzo (asli ismi Sulton Bays) ni shoh qilib ko'tarish maqsadida shaharda qolgan mo'g'ul beklarini birlashtirib, Xon Mirzoning nomini xutbaga qo'shib o'qitirish taraddudida turganda kutilmaganda Boburning kelayotgani haqida xabar tarqaldi.

Bobur choparlar yuborib, shahrni himoya qilib turgan kishilar Mulla Bobo Poshog'ariy, Xalifa, Muhib Ali Qurchi, Ahmad Qosim va boshqalarni ogohlantirdi va qo'qqisidan shaharga hujum qilib , isyonchilarni birma-bir qo'lga oldi. Xon Mirzo zo'rg'a otga minib qochib qolishiga ulgurdi, Muhammad Husayn Mirzo esa saroydan qochib chiqib o'zini bir tomonga urdi. Shahar atrofi va ichkarisida qattiq jangler bo'ldi. Tez orada bosh ko'targanlarning boshliqlari qo'lga olindi. Ulardan biri Boburning etibori tushgan Sulton Sanjar barlos edi.

Marv yaqinida tarixiy jang 1510-yilning 2-dekabrida yuz bergan edi. Shu oyning o'zidayoq bu jang tavsiloti Xon Mirzoning choparlari orqali Boburshohga yetkazildi. Xat yozilgan paytda Shayboniyning hali taqdiri hal qilinmagan edi. Xatda Shayboni beklari Qunduzni tashlab chiqib ketayotgani yigirma mingga yaqin mo'g'ul lashkarlari o'zbeklardan ajrab Qunduzga kelgani va bu yerda Xon Mirzo o'zi hokimlik qilib turgani va ota bobolari saltanatini tiklash yo'lida Boburshohga qo'shilishga tayyor ekani ma'lum qilingan edi. Boburning ko'nglini taskin toptiradigan bundan yaxshiroq xabar bo'lishi mumkin emas edi. Qish bo'lishiga qaramay Obdara davonidan oshib , Bomiyonga keldi va Ramozon ro'zasini shu yerda o'tkazib, yanvar oyida Qunduzga yetib keldi. Bu yerda bir oz dam olgach kelajak rejalarini tuzdi. Qish oxirida Amudaryodan o'tib bu yerga hukumronlik qilayotgan o'zbek sultonlari – Humza sulton va Mahdi Sultonni Hisor - Shodmon qal'asidan quvib chiqarishni mo'ljalladi.

Boburning kelayotganini eshitgan Hamza sulton Vag'shga qarab chekindi. Bir birini bir oz vaqt quvib yurishgach, jang qilmasdanoq Bobur Qunduzga Hamza Sulton esa Xisorga qaytib kelishdi.

Bobur Qunduzda turganida shox Ismoilan elchilar keldi. Ular sovg'a- salomlar bilan Boburning Samarqand qamalidan so'ng Shayboniy nikohiga olingan egachisi Xonzoda Begimni olib kelgan edilar. Xonzoda Begimning Shayboniydan bo'lgan Xurramshoh ismli bir o'g'li bo'lib u ham onasi bilan birga kelgan edi. Xurramshohga Balx hokimligi berildi. Biroq ikki yil o'tmay u vafot etdi.¹⁸

Xonzoda Begimning ukasi Bobur Mirzo bilan til biriktirib o'ziga qarshi fitna uyushtirishdan chuchigan Shayboniy uni taloq qilib, dindor oiladan chiqqan Ziyo Hodi ismli kishiga bergan edi. Ziyo Hodi Marv yonidagi jangda halok bo'lib, Xonzoda Begim Eroniylarga asr tushgan. Boburning opasi ekanini bilgach Shoh Ismoil unga hurmat ehtirom ko'rsatib, sovg'a salom va xizmatkorlari bilan ukasi huzuriga jo'natgan edi. U shahzoda Bobur bilan do'stlik munosabatlari o'rnatish fikrida edi. Boburning himoya qilishicha opasini kelayotganini eshitib saroy ayonlari va mulozimlari bilan uni kutgani ancha masofa yo'lga kelishdi. Bobur o'shanda yigirma sakkiz yoshda edi. Oradan o'tgan o'n yillik voqealar opa ukaning ikkalasini ham shunchalik o'zgartirib yuborgan ediki u opasiga murojaat qilganida ham ular bir birlarini tanimadilar. Begim ularning qolgan qismini Qobulda, podshoh ukasi huzurida hurmat ehtiromda o'tkazdi.

Shu paytgacha ikkilanib turgan Bobur sovg'a-salomlar tayyorlab, tezlik bilan Xon Mirzoni Shoh Ismoil huzuriga yo'llab, erishilgan ulkan g'alaba bilan qutladi, opasiga ko'rsatilgan izzat-hurmat uchun minnatdorchilik izhor qildi va Movarounnahrda avvalgi Saltanatni tiklashda yordam ko'rsatishi iltimas qildi.

Shayboniy sindirilgan bo'lsa ham uning izdoshlari- o'g'il jiyanlari Movarounnahrning kuchli markazlarini o'z qo'llarida saqlab turar va Boburning

¹⁸ Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. Fan 1994-yil 36-bet

erkin harakat qilishiga yo'l qo'ymas edilar. Shayboniyning o'gli Temur Sulton Samarqandda, jiyani Ubaydullaxon Buxoroda, amakisining o'gli Jonibek Sulton Andijonda, Abdulxayrxonning o'g'li Ko'chimxon Turkistonda, uning o'g'li Suyunbek esa Toshkentda hukmdorlik qilar edilar.

1511-yilning bahorida Shoh Ismoil Movarounnahrda yurish boshlab Parapomison tog' tizmalaridan o'tib, Maymana va Qorarabotga yetib keldi. Bu yerda Temur Sulton jo'natgan o'zbeklar elchisiga ro'para keldi. Ular katta sovg'a-salomlar bilan sulh tuzushga kelgan edilar. Bu sulh Shoh Ismoilga Turkiya va Ozarbayjonga yurish imkoniyatini bera edi. Shuning uchun u rozi bo'ldi. Sulh shartlariga ko'ra, Amudaryo ularning mulki orasidagi chegara bo'lmog'i lozim edi. Daryoning janubiy qirg'og'i Shoh Ismoil ixtiyoriga o'tdi, biroq bu mamlakatdan ulkan sahro orqali ajralib qolgani va aloqa qiyinlashgani tufayli ko'p o'tmay Xorazm yana shimoldan kelgan bosqinchilar qo'lga o'tdi. Sulh tuzilgach, Shoh Ismoil Xirotda qaytdi.

Bobur Shoh Ismoildan yordam so'rab yozgan xatining natijasini kutib turgan paytda Ziyod Muhammad Mirzodan xushxabar keldi. Unda aytilishicha, Ziyod Muhammad Mirzo Shayboniy o'zbeklarni Farg'ona davlati hududidan haydab chiqargan edi. Tezlik bilan qo'shin tuzilib, unga Sulton Saidxon lashkarboshi qilib tayinlandi va Andijonga jo'natildi. Shu orada Shoh Ismoil yordamga jo'natgan qo'shinning bir qismi bilan Xon Mirzo ham yatib keldi. O'zbeklar u bilan tuzulgan sulxni buzishgandan so'ng, Shoh Ismoil Movarounnahrda Bobur yana o'z saltanatini tiklashi lozimligini tushuna boshlagan edi. Yordamchi kuchlar bilan Bobur Hisorga yo'l oldi.

Hisor olingach, Boburshoh o'z qo'shinlarini shu yerda to'play boshladi. Unga Shoh Ismoil yuborgan Mustafo Ali va Shohruh Sulton Muhrdor boshchiligida yordamchi o'qchilar kelib qo'shildi. Bobur yana shunday qudratli lashkarlar bilan Qarshiga yo'l oldi. Ubaydullaxon Qarshini tashlab, buxoroga shoshilayot edi. Buxoro qo'lga kirsam, Qarshi o'z-o'zidan taslim bo'lishi kerak edi. Shetob bilan yurib o'zbek sultonlaridan ilgariroq Buxoroga yetib kelindi. Vaqtini boy bermaganini anglagan o'zbek sultonlari yo'lda uchragan qishloqlarni talon-

taroch qilib, Turkiston sari yo'l oldilar. Kelayotgan vahimadan dahshatga tushgan Samarqandagi o'zbek sultonlari ham panoh izlab Turkistonga qoshdilar. Shunday qilib, toqqiz yillik hukmronlikdan so'ng o'zbeklar yana Movarounnahrda quvib chiqarildilar.

Buxoroda bir oz to'xtagach, Bobur Samarqandga yo'l oldi. U qayerga kelmasin, oddiy fuqaro dehqonlar, savdogarlar, hunarmanlar va butun shahar ahli yana o'zlarining avvalgi hukmdori qaytib kelganidan mamnun ekanini bildirib, uni har qadamda olqishlar edi. 1511-yil oktabr oyining boshlarida Bobur Samarqand honi deb e'lon qilindi. Eroniy askarlarni katta sovg'a – salomlar bilan siylab, ularni o'z yurtiga kuzatib qo'ydi.

Movarounnahragi muvaffaqiyatlari uchun u Shoh Ismoilning unga ko'rsatgan yordamidan minnatdorlik belgisi sifatida faqat o'zigina emas, balki lashkari ham eroniylik kiygan harbiy kiyimni kiyishi va ayniqsa, eroniy salla o'rashi lozimligi haqidagi farmoni sunniy mazhabga mansub bo'lgan Movarounnahr aholisini bir oz ranjitgan edi. Chunki Shoh Ismoil o'n ikki imomdan birining avlodlaridan sanalib, shia mazhabiga mansub edi. Shuning uchun ham sallani o'n ikki qavat qilib o'rar va boshdan oyog'igacha qizil matodan tayyorlangan shialar kiyimida ko'zga tashlanib turushi lozim edi. Shuning uchun ham eroniylik sunniylar tomonidan " qizilboshlar " deb yuritiladi. Bundan tashqari Shoh Ismoilning nomi Xuroson va boshqa shahardagi masjidlarda xutbaga qo'shib o'qilar, hattoki, ayrim tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, uning nomida tanga pul ham zarb qilingan edi. Shuning uchun ham hamisha beqiyos shuhrat egasi bo'lib kelgan Boburning obro'si tez orada xalq nazarida pasayib ketdi.

Bahor kelishi bilan bilanoq Shoh Ismoilning Iroqqa ketganini eshitgan o'zbeklar yana Movarounnahrdagi eski mavqeiini tiklash maqsadida qo'zg'alib qoldilar. Bir to'p lashkar Toshkentga, ikkinchisi esa Ubaydullaxonni boshchiligida Buxoroga yo'l oldi. Bir qism lashkarni Toshkent himoyasiga jo'natib, Bobur Ubaydullaxonni kutib olish uchun unga qarshi yurdi. Buxoro yaqiniga kelib qolgan Ubaydullo bir oz chekinishni ma'qul ko'rdi va Ko'li

Malikda Bobur unga yetib oldi. Juda qattiq jangdan so'ng Bobur chekinishga majbur bo'ldi. Dushman uni Samarqandgacha quvib kelib, shaharni qamal qildi. Qishdan endigina chiqqan shahar aholisi qamalga bardosh bera olmas edi. Qarshilik ko'rsatishning behuda ekaniga ko'zi etgan Bobur poytaxtni tashlab Hisor tomon yo'l oldi.¹⁹

G'ijdivondagi muvaffaqiyatsiz jang, eroniylar qo'shinining ko'payishi tarqab ketishi, o'zbeklar qo'shinining ko'payishi va ularning egallagan mavqeyi Boburning yana Buxoro va Samarqand taxtiga qaytishiga hech qanday umid qoldirmadi. Lekin Boburning omadsizliklari bugina emas edi. U o'z xotiralarida qo'l ostidagi mo'g'ullarning tartibsizligi, vaxshiyliklari haqida ko'p yozgan. O'sha urushdan keyin Boburning qayta oyoqqa turishiga ishonch qolmagan mo'g'ullar unga qarshi suiqasd uyushtirdilar. Ularning boshida Mir Ayyubbek, Mir Muhammad, Yodgor Mirzo va Nazar Mirzolar turar edi. Ular tunda Bobur uxlab yotgan chodirga hujum qilib, soqchilarni uloqtirdilar va shovqin-surondan uyg'onib ketgan Bobur ichki kiyimida qochib chiqib, Hisor qal'asi ichiga yashirindi. Omadi yurishmagan mo'g'ullaryo'lda uchragan kishini talab Qorategin tomonga qochdilar. Bobur Hisorda ishonchli amirlarini qoldirib Qunduzga ketadi. Butun Hisor vodiysi mo'g'ullar qo'lida qolgan edi. Qunduzda bir oz vaqt nimaqilarini bilmay tentirab yurib, Badoxshonda Xon Mirzoni qoldirib, Bobur yana bir marta Hindikush tog'laridan oshib Qobulga keldi.²⁰ Boburshoh 1514-yilda o'zbeklarning ko'p sonli qo'shini tomonidan Movarounnahrda quvib chiqarilgach, Qobulga qaytib keldi. O'z o'rniga qo'yibketgan kichik ukasi Nisir Mirzo uni hurmat ehtirom bilan kutib olib, ilgari o'zi egallab turgan G'aznaga ketishga akasidan izn so'radi. Boburshoh saltanatdagi eng niuob sovg'a-salomlar bilan ukasini siylab, uni G'aznaga kuzatib qo'ydi. Biroq keying yillarda iichkilikka berilib ketgan Nosir Mirzo o'sha dardning qurboni bo'ldi va 1515-yilda vafot etdi. Undan Yodgor Nosir Mirzo ismli o'g'il qoldi.

¹⁹ Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi-1996-yil 28-bet

²⁰ Z. M. Bobur , Boburnoma. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent. 1990-yil.

1519-yilgacha bo'lgan davr boshqa davr bo'lib, bu paytda Bobur saltanatdagi ishlarni takomillashtirish hamda yaqin atrofdagi tog'li qaysar qabilalarni o'ziga bo'ysindirish ishlari bilan band bo'ldi. Xazorlar, aymoqlar va afg'on qabilalari Bobur Dehlini olgunga qadar ham unga to'la bo'ysunishdan bosh tortib, soliqlarni ham o'z vaqtida to'lamas edilar. Hozirgi afg'on davlatiga qarashli, ya'ni Hindiston chegaralarigacha bo'lgan hududni Bobur Qobulga to'la bo'ysundirgan edi.

1519-yilga hozirgacha mustaqil bo'lgan Bajur Sultoniga qarshi yurish boshlandi. Bu yurishda ularning dushmani bo'lmish dilozoq afg'onlari yo'l boshchilik qildilar. Qattiq jangdan so'ng Bajur qal'asi olindi, uni boshqarish Xo'ja Kalonga topshirildi. Movarounnahrda qaytib kelgandan buyon Boburning fikru zikri Qandahar va Hindistonni egallash bilan band edi.²¹

Bobur shijoatli hukmdor edi. U ulkan imperiya tuzish ishtiyoqi bilan tinimsiz yonardi. Samarqandni qo'lga olgach, Markaziy Osiyoda ana shunday ulkan saltanat tuzishga uringan edi. Lekin shayboniylar uning bu niyatini amalga oshirishga yo'l qo'ymadilar. G'arbiy Osiyoda mavjud siyosiy ahvol ham uning rejalarini amalga oshirish uchun qulay sharoitni vujudga keltirgandi. Shayboniylar va eronliklar o'zaro urushda bir birlarini yenga olmaganlaridan so'ng, ularning hech biri Boburning Kobuldagi saltanatini bevosita qila olmaydigan vaziyatda qolgan edilar. Sguning uchun ham Bobur bemalol Hindistonni egallash ishlari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan edi.

Boburning ishtiyoqi uni Hindistonga hujum qilish sari boshladi. Udoviyurak, jasur va mohir lashkarboshi edi. Raqiblari bir necha bor mag'lub qilgan bo'lsa ham, u o'zini batamom mag'lub deb hisoblamas edi. Bobur shuning uchun ham ko'zlagan maqsadiga yetishga hamisha ishonardi. U o'z mag'lubiyatlaridan ham to'g'ri xulosalar chiqarar, qobiliyati va irodasini chiniqtirib borar edi. U turklar mo'g'ullar, shayboniylar, forslar va afg'onlar bilan bo'lgan janglarda juda ko'p tajriba to'plagan va chiniqqan edi. Ularning har biridan jang

²¹ Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Tosh. Sharq.2011-yil 27-bet

qilish uslubini o'rgangan edi . Shu bilan o'zining urush olib borish taktikasini va qurollarini takomillashtirib borardi.

U shayboniylardan urushning “ to'lg'ama “ usulini , mo'g'ullardan esa pistirma qo'yishni o'rgandi. Afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni o'rgangan bo'lsa, eroniylardan artilleriyani ishlatishni, turklardan esa ko'chma suvoriylar qo'shinini unumli ishlatishni o'rgandi. Bobur tukr zobitlari bo'lmish Ustod Ali va Mustafolar yordamida kuchli artelleriya qo'shinini tuzdi va shu tufayli Hindistonga raqiblari ustidan g'olib keldi.

Ingliz tarixchisi Rashburk Uilyamsning ta'kidlashicha “ Boburning Hindistondagi tantanasiga asosiy sabab bo'lgan yagona moddiy omil baquvvat artelleriya bo'lgan edi. “ Bundan tashqari, Bobur chidamlilik, matonatilik, jasurlik, o'limga tik qarash, o'zga va o'z taqdiriga ishonish kabi hislatlarga ega ediki, bu fazilatlar doimo unga kishilarni olg'a yetaklash imkonini berib turar edi. Shunday qilib, uning tuganmas g'ayratli va shaxsiy xislatlari o'z baxtini Hindistonda sinab ko'rishga chorlagan edi. Bobur boylikka hirs qo'ygan odam emas edi. Biroq Hindistonning boyliklari uni va hamrohlarini maftun qilgan omillardan biri bo'lganligi shubhasizdir.²²

Hindiston o'sha paytda bir-biri bilan doimiy raqobatda bo'lgan mustaqil mayda davlatlardan iborat edi. Shimoliy Hindistonda afg'onlarning kuchli ta'siri sezilib tursa-da, ular mayda bo'laklarga bo'linib ketgan edilar. Ibrohim Lo'diy Dehli va Agra sultoni edi, lekin u Shimoliy Hindistonga to'la hukmronlik qila olmas edi. Uning davlati g'arbda Panjobdan sharqda to Behar viloyatigacha yetib borardi. Hattoki mana shu kichik hududda ham u o'z hukmini to'laligicha o'tkaza olmas edi. Unga qarshi amaldorlari va qarindosh urug'lari isyon ko'tarib turishgan edi. Behorlik amaldorlaridan bo'lmish uning amakisi Oamxon Lo'diy Dehli taxtiga da'vogarlik qilar, Panjob hokimi Davlatxon Lo'diy esa o'zi mustaqil siyosat yurgizar edi.

²² Mamajonov A. M. O'zbekiston tarixi. Toshkent. Cho'lpon 1992-yil 94-bet

Sulton Iskandar Lo'diyning o'limidan so'ng uning merosxo'ri Ibrohim Lo'diy Dehli saltanatida o'zining qudratli va obro'sini ancha yo'qotib qo'ygan, afg'onlarni hali o'z ta'siriga ololmagan edi. Aksincha, Ibrohim Lo'diy noto'g'ri siyosati va takabburona fe'l-atvori bilan afg'on amaldorlari orasida shubha, g'arazguylik va tarqoqlikni keltirib chiqardi. Shuning uchun hatto o'z saroyida ham unga nisbatan sodiqlik va birlik hissi sezilmas edi. Bundan tashqari, Bengal, Molva va Gujarot viloyati hokimlari ham uning asosiy raqiblari bo'lib, uning har bir xatosidan unumli foydalanib qolish payida yurar edilar.

Shunday qilib, afg'on hokimlari orasida chetdan kelgan raqibga qarshi kurashish uchun birlashish niyati yo'q edi. Ulardan biri Olamxon Lo'diy va ikkinchisi Davlatxon Lo'diy bo'lib, ular Boburni Hindistonga yurish qilishga taklif etgan edilar, chunki uning yordami Dehli saltanatini qo'lga olishni mo'ljallagan edilar. Shuning uchun ular birlashib Dehliga yurish qildilar. Rona Sanga ham Ibrohim Lo'diyga qarshi yurishda Boburga o'z yordamini taklif qilgan bo'lishi kerak. U ham Dehli taxtini mo'ljallab yurar edi. Uning hisobiga qaraganda, Bobur va Ibrohim Lo'diy orasidagi jangda ulardan biri yo'qolishi, ikkinchisi esa kuchsizlanib qolishi kerak edi. Bu hol esa Rona Sangaga Dehli taxtiga ega bo'lish niyatini amalga oshirishni osonlashtirar edi. Ana shu holatlarning barchasi Boburni Hindistonga yurish qilishga undardi.

Bobur Hindistonga besh marta yurish qildi. Dastlabki to'rt yurishi o'ziga xos sinov yoxud tayyorgarlik yurishlari bo'ldi. Birinchi yurishda (1519-yilda) u Bajur va Behra viloyatlarini bo'ysundirib qaytgandi. Biroq har ikkala viloyat ham Bobur orqaga qaytishi bilanoq mustaqil siyosat olib boraverdi. Shu yili u yana Hindistonga yurish qildi-yu, biroq bus afar Peshovardan qaytib ketdi. Uchinchi bor yurishida Bobur (1520-yilda) Panjobgacha kirib keldi va Sialkot hamda Sayidpur qal'alarini o'ziga bo'ysundirdi. To'rtinchi marta u Hindistonga 1524-yilda yurish qildi va bus afar Lohur va Dibalpurgacha bo'lgan hududlarni egalladi. U Davlatxon Lo'diyning Panjobni o'z ixtiyorida olib qolish niyatidan ranjigan edi. Lekin u Olamxon Lo'diy va Dilovarxon Lo'diyga muruvvat qildi. Panjobni ular ixtiyorida qoldirib, o'zi Kobulga qaytdi. U qaytishi bilanoq,

Davlatxon yana Panjobni bosib oldi. 1525-yilgi yurishda Bobur Hindistonni butunlay ishg'ol qilish niyati bilan safarga otlangan edi.

Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi, adabiyotshunos, faqix, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va novotot, olamining bilimdoni sifatida ko'p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “ Boburnoma “ ning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir.

Bobur, birinchi navbatda, shoh, Boburiylar sulolasining asoschisi. Balki boburiylar jahon tarixida ko'p yillar (332-yil) hukmronlik qilgan sulola bo'lib hisoblanadi...

U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug' himmatli va oily maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblagan, va Samarqandga intilgan. U yerda Zaynoniyxondan yengilib Qobulga keldi, va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukumdoriga aylandi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'alarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq kanallar qazish, bog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakkam ijobiy baholandi. Hindistonning buyuk donishmand farzandi, davlat arbobi, Javohirlar Neru o'zining “ Hindistonning ochilishi “ va “ Jahon tarixiga bir nazar “ asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan.

“ Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorning haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam edi. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mansabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'at va ayniqsa adabiyotni sevar edi.”²³

²³ Hasanov. X. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O'zbekiston. 1983-yil 58-bet.

Bugun Hindistonning Panipat shahriga borgan kishi Sulton Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan tarixiy muzafforona jangi manzaralarini shaharning ochiq osmoni ostida muzeyda ko'rarkan, ulug' hind xalqining Boburga nisbatan hurmat ehtiromi kuchliligiga amin bo'ladi yoki Bangladesh poytaxti Dakka shahrini kezgan kishi "Lalbog' –qal'a " tarixiy muzeyiga kirib Bobur va boburiylarga bag'ishlangan xonalarni kezarkan Bobur va uning vorislariga tegishli kiyemlar, uy ro'zg'or buyumlari, harbiy qurol aslahalar Ustod Aliquli qo'ygan toshotar to'plar, miltiqlar- tufaklar, sovut , qilich-qal'qonlar, do'bilg'a, ot kiyimlarini, (o'q va qilich zarbasidan himoya qiluvchi yopinchiqlar", o'sha davr kishilarini o'z zamonlari liboslariga tomosha qilgan kishi Hindiston va Bangladesh xalqlarini Bobur va boburiylarga bo'lgan hurmatlarini yorqin tasavvur eta oladi.²⁴

" Boburnoma " avvalo yetuk badiiy asar. Badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea- hodisalarni butun voqeyligi bilan kitobxon ko'z oldida gavdalantira olish uslub , baquvvatligi- bu uslubning bir xususiyati fikrdan saxiylixi ixcham bayon Bo'lsa ikkinchi xususiyati- o'zigagina xosligi va eng muhim, ta'sirchanlik ustuvorligidir.

Muallif garchan kamtarlik bilan ko'pincha o'zini chetroq tortib, " Farmon berdim " o'rniga " Farmon berildi " tarzida matnda o'z dahlini oldinga chiqarishdan tiyilsada, asardagi bosh qahramon- Boburning o'zi bo'lib qolaveradi. Farg'ona, Qobul va Hindistondagi voqea hodisalar ummonida Zahiriddin Muhammad Boburning o'ktam shaxsiyati baralla ko'zga tashlanadi. Ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfenistonning " Boburnoma " va uning bosh qahramoni haqida aytgan quyudagi fikrlari etiborga molikdir.

Bu xotiralarda buyuk turkey podshohning hayoti batavsil tsvirlangan, uning shaxsiy his – tuyg'ulari har qanday mubolag'a va pardalashlardan xoli.

²⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. O'qituvchi – 2008-yil 3-bet.

Uning uslubi odiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlari, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakkam tarixiy tasvir namunasidir. Lekin muallifning harakteri asarga eng ko'p joziba bag'ishlaydi.

Asardagi voqea hodisalar muayyan ma'noda uning qismat sarguzashtlariga chambarchas tutashib ketgan. Shuning uchun asarni boshdan oxirigacha o'qigan kitobxon o'smir Boburni, yigit shahzoda Boburni, oshiq Boburni, umrbot jangovor lashkarboshi Boburni, podshoh va mutafakkir, mehribon ota Boburni, barcha zafar va mag'lubiyatlari, fazilatlarining nuqsonlari bilan ravshan tasavvur eta oladi. Muallif "Vaqoe" (Boburnoma) ni yozgan qo'lga qalam olgan kunidan boshlab voqea hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr mulohaza va ma'lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan (Matn tabdili): "Bo'lgan voqelarni rost yozganlar chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har sozning rosti bitiladi va har ish aynan qanday voqey bo'lgan bo'lsa shunday aytiladi". Shu bois Bobur har bir shaxsga baho berganda uning barcha muhim fazilatli va fel atvoridagi nuqsonlarni aytishga harakat qildi. Bunda u mustasnolikka yo'l qo'ymaydi hatto otasi bo'lsa ham o'sha ikki zaruriy o'lchovga amal qiladi faqat otasiga emas, o'ziga nisbatan ham.²⁵

Bobur – shariyatpanoh podshoh va shariyatga rioya qiluvchi musulmon "Boburnoma" da ijtimoiy jinoyat sodir etganlarga turli tuman jazolash usullari qo'llangani hikoya qilinadi. Chunonchi Bobur tinch aholining yog'li xumiga o'g'irlagan bir navkarni tayoq tutgan saf o'rtasida o'tkazib, tayoqlatib o'ldirtiradi. Ayniqsa oilaviy munosabatlardagi shariy va noshariy ishlarga Bobur katta ahamiyat beradi. Hisor begi Hisravshoh – yerik bek. Navkari yigirma o'ttiz mingga yetadiki, bu juda favqulodda hodisadir. Biroq u shariatdan bahabar bir nusxa "Hisor xalqi - deb ezadi. Bobur – hususan Hisravshohga ta'luqli el hamisha ichkilik va zinoga mashg'ul edi. Shu darajadagi Hisravshohning navkarlaridan biri bir kishining xotinini tortib olib ketadi bu xotinning eri Hisravshohga kelib arz dod

²⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur . Boburnoma. Toshkent. O'zbekiston 2008-yil 12-bet.

qiladi. Hisravshoh javob beradiki : “ Bir necha yil sen bilan birga edi, bir necha kun u bilan birga bo’lsin”. Bu voqeani eshitgan va yozgan shariyatpanoh Bobur shu darajada g’azablanadiki “ Bu voqeani eshitib Hisravshohga lanatlar yog’dirmagan kishiga ham lanatlar bo’lsin !”, deb yuboradi.

Bobur Hisravshoh beklik qilgan Hisordan o’tayotganda shariy bir davo voqeasi beriladi. (mant tabdili) : “ Hisravshohni ko’rib qaytgan oqshom Mirzoxon mening qoshimga kelib og’alarining qonini davo qildi. Bizning orada ba’zilar ham amin edilar. Darvoqe shariyat va urf bilan ham munosibi shunday ediki bunday kishilar jazosiga yetgay. “ ²⁶

1.2. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASOS SOLGAN BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON TARIXIDA TUTGAN O’RNI.

Boburning keyingi yillardagi hayoti tarixda ochmas iz qoldirgan jasoratli ishlariga to’la bo’ldi. Ulardan eng muhimi Hindistonning bosib olinishidir. Ayniqsa, Dehli va unga qaram bo’lgan joylarning qo’lga kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yurish Bobur Qobul va G’aznaga hukmdor bo’lgandan yigirma yildan ko’proq vaqt o’tgandan so’ng ro’y berdi. Bungacha bo’lgan davrda Bobur Badaxshon, Qunduz hamda Qandaharda ham hukmronlikni qo’lga kiritgan edi. Boburning Hindistonga qilgan yurishi tafsilotlaridan avval uning bu yerdagi saltanatning shakllanishida ma’lum darajada sezilarli ahamiyat kasb etadigan holatlarga, ya’ni Boburgacha bo’lgan Hindistondagi davlat tuzulishi, Dehli saltanati va unda yuz bergan voqealar haqida qisqacha hikoya qilish maqsadga muvofiqdir. ²⁷

²⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur . Boburnoma. Toshkent. O’zbekiston 2008-yil 14-bet.

²⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur Toshkent. Sharq-2002-yil 27-bet

Hindiston va uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning ko'p sonli aholisining taqdiri azaldan shimoldan keluvchi bosqinchilarning qurboni bo'lishga mahkum etilgandek ko'rinadi. Ular o'z mamlakatining tabiiy chegarasi bo'lmish Himolay tog'laridan Hind ummonigacha bo'lgan ulkan hududdan tashqarida qadim davrlardan buyon hech qanday bosqinchilik yurishlari qilmaganlar. Uzoq davrlardagi forslar va yunonlarning yurishlaridan keyin bu o'lkaga keying davrlarda osiyolik musulmonlar quruqlikdan, ovropalik xristianlar esa dengiz tarafdin bostirib keldilar.

Mamlakatda ahvol musulmonlarning kirib kelishi bilan tubdan o'zgardi. Ularning bu yerdagi hukmronligi tarixan ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr Sulton G'aznaviyning kelishi (1021-yil) dan Boburning kelishigacha bo'lib, besh yuz yillik davrni qamrab oladi. Ikkinchi davr uch yuz yildan ortiqroq davr bo'lib, Boburning Hindistonga kelgan kunidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu " Hindistonda boburiylar sulolasi " davri deb ham ataydilar.

Boburning nazari Hindistonga tushib turgan kezlarda Dehlida Ibrohim Lo'diy hukmron edi. Lekin saltanatda paydo bo'lgan raqobat Lo'diy saltanatini anchagina bo'shashtirib qo'ygan edi. Jiyanining davlatni boshqarish siyosatidan norozi bo'lgan Alovuddin Bobur huzuriga madad so'rab keldi. Bizga ma'lumki, Bobur Kobulga yangi kelgan kunlardayoq uni Hindistonga taklif etishgan edi. Boburning Hindistonni bo'ysundirishdan avval bu ishga u to'rt marta urunib ko'rgan ekan. Uning birinchi yurishi 1519-yilda sodir bo'lib, unda Bajur qal'asini olib, Sind orqali Attokgacha brogan va Behra vodiysigacha etib kelgan edi. Undan o'tib, Kushob va Chanob viloyatlari ham olindi. Olti hafta davomida daryoning narigi qirg'og'idagi anchagina yerlar ham qo'lga kiritildi.

Hindistonga ikkinchi bor yurishida Bobur Lohur, Multon va Sgirind viloyatlarini egallab, qaysar afg'on qabilalarini bo'ysundirib, o'ttiz mingga yaqin qul, to'rt yuz ming shohruhiy soliq olib ketgan edi.

Uchinchi yurishda yani 1520-yilda Hind daryosidan o'tib Behra, undan nari borib Chanob viloyati ham olindi. O'sha paytda qandahorliklar Bobur

yerlariga hujum qilgani haqida xabar kelib, ularni tinchitish va Qandaharni qayta olish uchun Qobulga qaytib ketgan edi.

Boburning to'rtinchi yurishi yani 1522-yil, Sulton Ibrohimning tog'asi Alovuddinning Bobur huzuriga kelishi va uni Dehli taxtiga ko'tarmoqchi ekani haqidagi chaqirig'i bilan bog'liq. Sulton Ibrohimning raqibi bo'lmish Lohur hokimi Davlatxon ham afg'on beklari bilan til biriktirib, Boburdan yordam so'rab murojaat qildi. Chunki u o'z kuchlari bilan unga qarshi jo'natilgan Bahorxon Lo'diyning qo'shiniga bas kela olmas edi. Ko'rsatilgan yordam evaziga Boburni shoh qilib ko'tarishga va'da bergan edi. Bobur bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, o'z qo'shini bilan yo'lga chiqdi. Sind daryosidan o'tib Gekerlar viloyati olindi. Chanob va Jilem viloyatlari ham qo'lga kirgach, tez orada Lohurga yaqinlashib keldilar. Bahorxon Lo'diyning yaqinlashganini eshitib Davlatxon belujlar qabilasiga keldi. Bobur qo'shini Lohur yaqinida Bahorxon Lo'diyning qo'shini bilan yuzma-yuz kelib, ancha talofat berib, nihoyat, uni tor-mor qildi. Uning qo'shini shaharni talab, bozorga o't qo'ydi. Shaharda to'rt kungina to'xtab, Diboldurni ishg'ol qilish uchun yo'lga chiqildi. Qattiq hijum bilan shahar olindi va talandi, himoyachilar qilichdan o'tkazildi.

1526-yildan boshlab Hindistonda yangi sulolaning boshlanishiga asos solgan Bobur Chig'atoy turklari oilasiga mansub edi. Shunga qaramay Hindiston tarixida uning oilasi "mo'g'ullar" deb ataladi. Bu sulola vakillari Hindistonni uzoq davr mobaynida mohirlik bilan boshqarib turdi. Mamlakatning juda katta qismida siyosiy birlikni saqlab, bu ulkan imperiyani tinchlikda gullab-yashnashini ta'minlay oldilar. Bu sulola mamlakatga Boburdan Avrangzebgacha bo'lgan qobiliyatli hukmdorlarni ketma-ket yetkazib berib turdi. Temuriylar odatda Xalifani o'zlarining piri deb bilmas edilar, balki davlatni mustaqil ravishda o'z qarashlari asosida boshqarar edilar. Ular raqib bilan urush olib borishning vositalari va uslublarini takomillashtirdilar. Hindistonda birinchi bor arteliriyani

qo'lladilar. Shuningdek, adabiyot va tasviriy san'atning har sohada o'sib rivojlanishiga rahnamolik qildilar.²⁸

Boburiylar davrida Hindistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari tiklandi. Afg'onistonday mamlakat esa buyuk imperiyaning bir qismi bo'lib qolaverdi. U Hindiston bilan Eron, Markaziy Osiyo va ular orqali G'arbning uzoq mamlakatlari bilan aloqa bog'lash uchun vositachilik vazifasini bajarib turdi. Bu hol esa xorijiy mamlakatlar bilan savdo ishlarini yo'lga qo'yish va Hindistonning yanada ranaq topishiga imkoniyat yaratib berar edi. Shuningdek, G'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy aloqalarni saqlashga ham yordam berar edi. Shunisi diqqatga sazavorki, musulmon hukmdorlarining ko'pchiligi dinga nisbatan xolis nazar bilan qarar edilar. Ular ko'r-ko'rona din ketidan quvishdan ko'ra imperiya barpo etishni afzal ko'rar edilar. Shuning uchun ham mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etuvchi hindlarning e'tiqodini ham qo'llab quvvatlashga harakat qilishardi. Deyarli uch asr davomida ikki xil e'tiqoddagi, ikki xil turmush tarzidagi jamoani bir-biriga yaqinlashtirib diniy raqobatga yo'l qo'ymasdan hindlar bilan musulmonlar yonma-yon holda yashab keldilar. Shunday qilib, boburiylar Dehli saltanatida qo'llanib kelingan ko'p an'analarni saqlab qoldilargina emas, balki ularning ko'plarini davom ettirishga ham erishdilar. Shuning uchun ham boburiylar sulolasi tarixi Hindiston tarixida muhim va sharaflı o'rin egallaydi.

Hozirgi tarixchilarning barchasi Boburning tarixda juda katta hurmatga sazavor o'rinni egallashini alohida ta'kidlaydilar. Ingliz tarixchisi V. A. Smitning yozishicha, “ Bobur o'sha davrdagi osiyolik shahzodalarning eng zo'ri bo'lib, uning tarixdagi o'rni o'tmishdagi shahzodalar orasida o'lkan tahsinga sazovordir. “ Yevropalik tarixnavis Gavel esa Boburni “ Islom dunyosi tarixidagi eng jozibador shaxslardan edi.” Deb ta'riflaydi. Ingliz sharqshunosi U. Erskinning ta'riflashicha, “ Osiyolik shahzodalar orasida Bobur bilan barobar mavqeni egallay

²⁸ Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. Fan 1994-yil 46-bet

oladigan shahzoda bo'lgan emas.” Boburning shaxsi va uning fel-atvori, shubhasiz, ana shunday yuksak baholarga sazovordir. Lekin u Shimoliy Hindistonning katta qismini zabt etmaganida, tarix sahifalarida bunday yuqori o'rinni egallamagan bo'lar edi. Osiyo mamlakatlaridagi siyosati va Afg'onistonni fatx qilishdagi xizmatlari unga unchalik shuhrat keltirmagan. Faqat Hindistondagi g'olibona yurishlari tufayligina u tarixda mashhur va ahamiyatli o'rin egallaydi.

O'rta asrlarda qudratli hukmdorgina yaxshi hukumat boshqaruvchisi hisoblanadi. Hindiston ham kuchli va ta'sirchan davlat idorasi asosidagina gullab yashnashi mumkin edi. Asrlar davomida rajputlar, turklar va afg'onlar navbatma-navbat Hindistonda imperiya va kuchli monarxiya o'rnatishga urinib keldilar. Lekin ularning hech biri bu ishni uddalay olmadilar. Bobur esa bu o'lkada o'zining tadbirkor hukmdorlar sulolasini va ulkan imperiyani o'rnatadi. U Hindistonda uch marta, ya'ni Panipat, Qanva va Gograha hal qiluvchi janglar qildi va ularning barchasida g'olib chiqdi. Shu bilan u Hindistonga temuriylarga xos davlat boshqaruvini olib kirdi va unga mustahkam asos soldi.

Bobur, albatta, o'z saltanatini butun Hindistonga yoyib, uning turg'unligini ta'minlay olmadi. Shunga qaramay, afg'onlar va rajputlar hokimiyatini sindirib, uning o'ning o'rnida kuchli imperiyaga asos soldi. Tarixchilar ko'pincha Akbarni boburiylar imperiyasining asoschisi deb aytishadi. Albatta, Akbar mazkur imperiyani qayta tiklab, uni kengaytirdi va qudratini ancha oshirdi hamda saltanatni ma'muriy jihatdan mohirona idora qilish bilan unga yaxshigina asos yaratib berdi. Shuning uchun ham u qonuniy ravishda boburiylarning eng buyuk hukmdori deb tan olindi. Shunga qaramay, faqat Boburgina Hindistonda o'z nomi bilan ataluvchi sulolaga asos solgan hukmdor deb tan olinishi mumkin. U Shimoliy Hindistonning katta qismini egallab oldi. Dehlini o'ziga poytaxt qilib, afg'onlar va rajputlar hokimiyatini sindirdi.

Hind tarixchisi S. R. Sharma Boburni Angliya qiroli Genrix VII bilan taqqoslaydi. Ularning ikkalasi ham o'ziga qadar bo'lgan taxt sohibi va da'vogarlarini surib tashlab, o'z sulolasini davlat tepasiga olib kelib o'rnatdilar. Shu munosabat bilan Sharma shunday deb yozadi: “ 1526-yilda Zahiriddin

Muhammad Bobur Panipat yonidagi jangda Ibrohim Lo'diy ustidan g'alabaga erishib, Hindiston tarixida yangi davrni yaratdi va Dehli taxtiga yangi sulolani olib keldi. Xuddi shunga o'xshab undan qirq yil avval Bosfor maydonidagi jangda g'olib chiqqan Genrix VII ham Angliyada o'z sulolasi va davlat boshqaruvini o'rnatgan edi. “ Hind tarixchisi R. P. Tripatining ta'kidlashicha, “ ... boburiylar imperiyasining tantanasi uning harbiy qudrati tufayligina emas, balki o'z siyosatida diniy e'tiqod erkinligini amalga oshirgani va madaniy hayotga katta hissa qo'shganligi tufaylidir.” Bu siyosatni esa Bobur boshlab bergan edi.²⁹

Bobur yangi imperiyani qay tarzda o'rnatish kerakligini ko'rsatibgina qolmay, balki bu imperiyani boshqarish siyosatini ham o'rgatib qo'ygan edi. U Hindistonda o'rnatgan sulola va uning an'alarini hech qaysi mamlakatda topib bo'lmaydi. Bobur davlat boshlig'i sifatida xalifalikka da'vo ham qilgani yo'q va o'z hukmdorlik faoliyatida diniy muhtojlikni sezmad. Aksincha, u “ Podshoh “ unvoniga sazovor bo'lgach, davlatni mustaqil tarzda temuriylar uslubida boshqarib bordi. Shuning uchun ham u Dehli saltanatida hukm surib kelgan davlat boshqaruvini nazariy jihatdan o'zgartirib yubordi.

Bu albatta, davlat boshqaruvida dinga nisbatan xolislik siyosatining boshlanishi edi. Bobur butun Hindiston bo'ylab yagona imperiya o'rnatishga ulgura olmagan bo'lsa ham, uning nomi o'zi yaratgan shohona asarlari, ayniqsa, uning avtobiografik asari tufayli xotiramizda saqlanib qoldi.

Boburning yodnomalari uning taxtga chiqqan kunidan boshlanadi. “ 889 (hijriy) yilning ramazon oyida o'n ikki yoshimda Farg'ona davlatining hukmdori bo'ldim “. Deb yozgan edi Bobur. U o'zining hayot tafsilotlarini “ Tuzuki Boburiy “ yoki “ Boburnoma “ nomi bilan o'z ona tili bo'lmish turkiyda yozgan. Bu ham abadiy, ham tarixiy ahamiyatga molik asar sifatida e'tirof etiladi. BU asarni Poyonda Hasan va Aburahim Xoni xononlar fors tiliga alohida-alohida tarzda tarjima qilganlar. Shundan so'ng u juda ko'p Yevropa tillariga, shu jumladan,

²⁹ Quدراتullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Tosh. Sharq.2011-yil 29-bet

ingliz va fransuz tillariga ham tarjima qilingan. Ingliz olimi A. S. Beverij xonim tarjimasi inglizcha tarjimalar ichida eng yaxshisi deb tan olingan, chunki bu tarjima asl turkiy nusxadan bajarilgan. Asarda tushirib qoldirilgan bir necha o'rinlar bor. Muallif 1508-1519-yillardagi, 1520-yildagi, 1525-yildagi, va 1529-1530-yillardagi voqealarni turli sabablarga ko'ra bayon qila olmagan.

Boburning hayot yo'lini o'rganishda bu asareng yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi. Boburning hikoyalari aniq, ta'sirchan va haqiqatga juda yaqin. To'g'ri, ayrim o'rinlarda, ayniqsa, Hindiston masalasida ba'zi hodisalarni to'g'ri tahlil qila olmagan va noto'g'ri izohlangan, lekin bu atayin qilingan ish emas edi. Bu asardan Boburning bilim doirasi, uning yutuq va kamchiliklari, huzur-halovati va tashvishlari, u yashagan davrdagi siyosiy ahvol, u kezgan o'lkalarning iqlimi hayvonot va o'simliklar dunyosi, muallifning didi va nozik tabi, bir qator xalqlar va elatlar haqida g'oyat nodir va qimmatli ma'lumotlar zikr etilgan. Ingliz tarixchisi S. Leyn Poul bu asarga “ muhim tarixiy hujjat “ deb qaraydi va “ O'sha davrga xos voqeylikni tasdiqlaydigan biron bir hujjat bo'lmasa bu masalada “ Boburnoma “ ga murojaat qilish kerak” deb yozadi u. Ingliz tarixchilaridan yana biri va davlat arbobi M. Elfingtoun eas bu asarni “ Osiyoning haqqoniy tarixini aks ettiruvchi kitob,” deb baholaydi.

“Boburnoma“da muallifning do'st va dushmanlarini turli vaziyatlardagi o'zining kechinmalari, tog'lar, daryolar, o'rmon va gulzorlarning tabiiy go'zalligini ta'riflashi kishini hayratda qoldiradi va o'quvchida uning adabiy asar ekaniga shubha qolmaydi.

Bobur o'zining xotiralarida Hindisto ta'rifiga ham o'rin bergan. Unda Hindiston iqlimi, aholisi tarkibi, bu yerdagi iqtisodiy va ijtimoiy shart sharoitlar, mahalliy hukmdorlar va siyosiy voqealar tasviriga keng o'rin berilgan. “ Hindiston birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimlarda joylashgan. Lekin to'rtinchi iqlimda Hindiston yo'q “, deb yozgan edi Bobur . “ Ind daryosini kesib o'tishingiz bilanoq, mamlakat, daraxtlar, tog'lar, odamlar va ularning odatlari hindcha ekanini ko'rasiz”. Hindisto va hindlar bilan bo'lgan birinchi uchrashuv unda yaxshi taasurot qoldirmagan edi. Shu sababli Hindistonning ta'riflari unchalik to'g'ri ham,

to'la ham emas edi. Orissa, Xondesh, Sind va Kashmir viloyatlari haqida umuman hech narsa deyilmagan. Albatta, ko'p vaqti urushlar bilan band bo'lgan kishininh yurtini ta'riflashga vaqti ham bo'lmaganini unutmaslik kerak.

Temuriylar tarixi barcha davrlarda jahon muarrixlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharqshunos olim V. V. Bartold ta'kidlaganidek, Temur va uning avlodlari davri tadqiqotchisi " Ma'lumotlarning kamligidan emas, ko'pligidan qiynaladi. Chunki ular ko'plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqozo etadi...". Biz mavjud tarixiy manbalar va tadqiqotlar qadr-qimmatini holis baholagan holda, " Boburnoma " asarining temuriylar shajarasini o'rganishdagi manbaviy ahamiyatiga e'tibor qaratamiz.

Temuriylar tarixiga qiziqish yanada ortganligi bois, tarixiy manbalar qayta nashr etilmoqda, ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar yaratilmoqda. Bular ichida T. Fayziyev, A. Ziyo, Sh. O'ljayeva, Hakim Sattoriy va boshqalarning temuriylarga oid asarlarini ta'kidlab ko'rsatish mumkin.³⁰ Ushbu asarning Nizomiddin Shomiyning " Zafarnoma ", Sharofuddin Ali Yazdiyning " Zafarnoma ", Ibn Arabshohning " Ajoyeb ul maqdur fi axbori Taymur ", Hofizi Abruning " Majmuayi Hofizi Abru", va " Zubdat ut-tavorix ", Mirxondning " Razvat us-safo", Abdurazzoq Samarqandiyning " Majmal-I Fasixiy ", Zahiriddin Muhammad Boburning " Boburnoma ", Xondamirning " Habib us-siyar fi axbor afrod ul bashar " va " Hulosat ul-axbor ", Gulbadanbegimning " Humoyunnoma ", " Temur tuzuklari " kabi manbalarni va yana ko'plab ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonida yaratildi.

Eslab o'tilgan manbalar orasida " Boburnoma " temuriylarga mansub sulola vakili tomonidan yozilganligi uning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bu manbaning O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, va Eron xalqlari tarixi va geografiyasiga doir qimmatli asarligini yodda tutgan holda, temuriylar shajarasiga oid ma'lumotlarni tahlil qilamiz. Muallif " Boburnoma "da shajara tarixini

³⁰ Fayziyev.T. Temuriy malikalari. Toshkent 1994-yil

yoritishni maqsad qilib qo'ymagan, ammo voqealar bayoni davomida tarixiy holatdan kelib chiqib, u yoki bu mirzo va begimlar ismi sharifini eslab o'tgan. Manbada bir qator mirzolarning hayot yo'li, valodati va nasabi, shakl va shamoyili, axloq va atvori, jangu jadallari, viloyatlari, xotin va sarori, avlodlari va umarolari haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lsa, ayrim mirzo va begim nomi bir yoki bir necha bor yuzaki zikr etib o'tilgan. Chunonchi, Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo otasi Umarshayx mirzo, amakilari Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo va Sulton Husayn mirzo ibn Mansur mirzolar haqida batafsil to'xtab o'tgan. "Boburnoma" xronologik jihatidan 1493-1529-yillarni o'z ichiga olsada, 1510-1518yillar va 1521-1524-yillardagi voqealar bayoni ayrim sabablarga ko'ra yoritilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Ba'zan esa 1493-yilgacha bo'lgan siyosiy jarayonlar aks etgan ma'lumotlar ham uchraydi.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida "Boburnoma" alohida ajralib turadi. Ajayib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy, tabiiy va adabiy lingvestik ma'lumotlar xazinisidir una 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish jangu-jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi.³¹Quyudagi jadvalni temuriylarning ismi shariflarini "Boburnoma" da uchratish tartibiga qarab quyudagicha tuzdik.

		Temuriy shahzodalari	betlar
1		Umarshayx mirzo ibn Sulton Abusaid mirzo	9
2		Sulton Ahmad mirzo ibn Sulton Abusaid mirzo	9

³¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent-1989-yil

3		Sulton Abu Said mirzo ibn Sulton Muhammad mirzo	9
4		Sulton Muhammad mirzo ibn Abusaid mirzo	9
5		Sulton Mahmud mirzo ibn Sulton Abusaid mirzo	9
6		Sulton Muhammad mirzo ibn Mironshoh mirzo	9
7		Mironshoh mirzo ibn Amir Temur	9
8		Umarshayx mirzo ibn Amir Temur	9
9		Jahongir mirzo ibn Amir Temur	9
10		Shohruh mirzo ibn Amir Temur	9
11	1	Zahiriddin Muhammad Bobur ibn Umarshayx mirzo	11
12	2	Jahongir mirzo ibn Umarshayx mirzo	11
13	3	Nosir mirzo ibn Umarshayx mirzo	11
14	4	Xurramshoh (onasi Xonzodabegim – Zahiriddin Muhammad Boburning opasi)	11
15	5	Ulug’bek mirzo ibn Shohruh mirzo	12
16	6	Abdulaziz mirzo ibn Ulug’bek mirzo	12
17	7	Ibrohim Sulton ibn Shohruh mirzo	13
18	8	Abdullo mirzo ibn Ibrohim Sulton	13
19	9	Abobakr mirzo ibn Sulton Abu Said mirzo	14
20	10	Sulton Vays mirzo (Xonmirzo-63 bet, Mirzoxon-13 bet) ibn Sulton Mahmud mirzo	

Shuningdek biz temuriy mirzolarining tavallud va vafot etgan sanalariga oid xronologik ma’lumotlar ham uchraydi, ammo ular to’liq emas. Bu Ma’lumotlarni ham manbada uchratish tartibiga qarab sahifasi bilan ko’rsatib o’tamiz:

1. Umarshayx mirzo (h. 860-yil, Samarqand – H 899-yil, Asxi. 9-bet).
2. Jahongir mirzo (Xahiriddin Muhammad Boburdan ikki yosh kichik, 11-bek).

3. Nosir mirzo (Zahiriddin Muhammad Boburdan to'rt yosh kichik, 11-bet)
4. Sulton Ahmad Mirzo (h.855-yil-h. 899-yil, Oqsuv. 19-bet.)
5. Malik Muhammad mirzo (qatl etilgan – h. 899-yil, 23-bet.)
6. Sulton Mahmud mirzo (h.857-yil – h.900-yil. 26-bet)
7. Ulug'bek mirzo (qatl etilgan – h. 853-yil. 45-bet)
8. Boysung'ur mirzo (h. 822-yil, Hisor – h. 905-yil bayonida qatl etilishi. 63-bet)
9. Sulton Ali mirzo (h. 906-yilda qatl etilgan. 72-bet)
10. Sulton Husayn mirzo (h. 842-yil, Hiri – h. 511-yil, Bobo Ilohiy 146-bet.)
11. Haydar mirzo (otasi zamonida vafot etgan. 150-bet).
12. Muhammad Ma'sum mirzo (“ Otasining hayotidayoq o'q kechdi”. 150-bet)
13. Farruh husayn mirzo (“Farruh Husayn mirzo edi, ul xud ziyoda umre topmadi. “ 150-bet.)
14. Abulmuhsun mirzo va Kepak mirzo (h. 913-yil bayonida “ Abulmuhsin mirzodin bedillik zohir bo'lur. Kepak mirzog'a chandoni tafovut qilmas ikkala mirzoning boshlarini Shayboqxon Puli Solorda ekanda yiborurlar. “ 187-bet.)
15. Humoyun (h. 913-yil bayonida : “ Ushbu yilning oxirida seshanba kechasi zilqada oyining to'rtida oftob xut burjida edi, Qobulning arkidamutavallid bo'ldi “. 195-bet)
16. Hindol (h. 925-yil bayonida: “ Baxrani olg'onda bu xabar etar, tayammunan va tafa'ulan otini Hindol qo'ydilar “. 201-bet.)
17. Foruq (h. 933-yil bayonida : “ Odina kechasi shavval oyining yigirma uchida mutavallid bo'lg'ondur, Foruq mavsum bo'ldi”. 278-bet.)
18. Al'amon (tavalludi h. 935-yil 320-bet.)
19. Xonmirzo (h. 936-yil bayoni . “ To'qquz yuz o'ttuz to'rtta Xon Mirzo olamdin safar qildi” 352-bet.)

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, “ Boburnoma “ asarining temuriylar shajarasini o'rganishdagi manbaviy ahamiyatini yanada chuqurroq

anglash uchun bu borada keng qamrovli tadqiqotlar qilish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida vatanimiz tarixida yorqin iz qoldirgan sulola vakillarining siyosiy hokimiyat maydonida tutgan o'rni, saltanat ravnaqi va tanazzulining sabab-mohiyatini yanada haqqoniy ochib berish imkoniyatini beradi.

Temuriylar tarixi barcha davrlarda jahon muarrixlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharqshunos olim V. V. Bartold ta'kidlaganidek, Temur va uning avlodlari davri tadqiqotchisi “ Ma'lumotlarning kamligidan emas, ko'pligidan qiynaladi. Chunki ular ko'plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqozo etadi...”. Biz mavjud tarixiy manbalar va tadqiqotlar qadr-qimmatini holis baholagan holda, “ Boburnoma “ asarining temuriylar shajarasini o'rganishdagi manbaviy ahamiyatiga e'tibor qaratamiz va shu asosida quyudagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.³²

1	Munichehr Mirzo ibn Sulton Muhammad mirzo	15
2	Jo'ji Mirzo ibn Shohruh Mirzo	15
3	Abulqosim Bobur Mirzzo	15
4	Humoyun ibn Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo	16
5	Sulton Ali Mirzo (Sulton Ali Mirzo 23-bet) ibn Sulton Mahmud Mirzo	16
6	Ulug'bek Mirzo ibn Sulton Abusaid Mirzo	20
7	Boboxon (onasi Robiya Sulton begim – Sulton Ahmad Mirzoning qizi)	20
8	Sulton Ma'sud Mirzo ibnSulton Mahmud Mirzo	21
9	Sulton Husayn Mirzo ibn Sulton G'iyosiddin Mansur Mirzo	22
10	Boysung'ur Mirzo ibn Sulton Mahmud Mirzo	22
11	Malik Muhammad Mirzo ibn Munichehr Mirzo	23

³² Z. M. Bobur .Toshkent , O'zbekiton. 2008-yil 35-bet

12	Sulton Husayn Mirzo ibn Sulton Mahmud Mirzo	27
13	Haydar Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo	27
14	Badiuzzamon Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo	33
15	Ibrohim Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo	33
16	Muzaffar Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo (ayrim hollarda Muzaffar mirzo sifatida berilgan 40-bet)	33
17	Abulmuhsun ibn Sulton Husayn Mirzo	34

Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma “ asari tarixiy – adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e’zozliki, asarda ko’plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san’at ahllari, din ahllari, shoh va shahzodalar, beklar, amiru umarolar haqida beriladi. H. Hasanovning yozishicham, “ Boburnoma “ da mingdan ziyod joy nomlari berilgan.³³

R. Rasulov asarida mingdan ortiq geografik nomlar va 1800 dan ortiq kishi ismlari uchraydi, dedi.³⁴ T. Nafasov aniq raqmlarni keltirib, “ Boburnoma “ da 1406 ta kishi ismi, 1100 dan ortiq joy nomlari qayd etilganligini yozadi.³⁵ Ko’rinib turibdiki, “ Boburnoma “dagi joy nomlari va kishi ismlarining qanchaligi xususida mutaxasislarning fikri bir – biridan jiddiy farq qiladi. Yuqorida keltirilgan taxminiy raqamlardan qanchasi Movarounnahrda oidligi haqida tadqiqotlarda hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Shu bois, quyida bu masalalarga oydinlik kiritishga harakat qildik.

“ Boburnoma “da hammasi bo’lib 1540 nafar kishi nomlari tilga olingan. Shundan 357 nafarini movarounnahrlik tarixiy shaxslar tashkil qiladi. Qolgan qiami esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslardir.

³³ Hasanov. H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O’zbekiston.1983-yil 62-bet

³⁴ Rasulov R. Bobur – o’zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi./ ilmiy to’plam. Samarqand. 2000-yil 44-bet.

³⁵ Nafasov T. Bobur nomshunos. / Ilmiy to’plam. Samarqand 2000-yil 39-bet.

Movarounnahrlik 357 nafar tarixiy shaxslar turli toifa kishilaridan iborat. Jumladan, 5 nafari amir va amirzodalar; 20 nafari shoh va shahzodalar; 42 nafari malika va shoh qizlar; 52 nafari umarolar, qo'shin boshliqlari va beklar; 21 nafari din va tasavvuf egalari; 30 nafari ilm-fan va adabiyot ahllari; 187 nafari turli xos kishilar – askarlar, dehqonlar, san'at ahllari, hunarmandlar, qullar, yog'iyarning nomlari tilga olingan va sharxlab berilgan.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur zamonasining buyuk imperiyasini barpo qilgan bo'lsa ham, ammo u o'zini bu buyuk davlatning “ qonuniy “ xoni deb e'lon qila olmadi. Bu tarixiy haqiqatni Abulg'ozi ham “ Shajarai turk “ asarida alohida qayd qilib o'tgan. “ Amir Temur muzaffar bo'lib, Amir Husaynni o'ldirib Movarounnahrda yakka o'zi bo'ldi. Suyurg'atmishxonni zohirda xon qilib taxtga o'lturtdi. Ma'noda o'zi xon erdi. Xutbani aning otini o'qur erdi. Suyurg'atmishxonning yolg'onchi sultondin yigirma ikki yil o'tkandin so'ng xon haq rahmatig'a ketdi. Amir Temur aning o'g'li Sulton Mahmudni xon qildi.” ³⁶

Amir Temur nasl-nasabi jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra, Temur avval Suyurg'atmishxonni , so'ngra uning o'g'li Sulton Mahmudni rasmiy xon qilib ko'tarib, xatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartiradi., pullar zarb ettiradi. Bu ikki hukmdor nomigagina xon bo'lib , Amir Temur farmoyishlariga mutlaqo aralashmasdilar. Temur o'z hukmdorligiga qonuniy tus berish, uni mustahkamlash maqsadida Amir Husaynning tul xotini Saroymulixonimga uylanadi. Bu ayol Movarounnahrning Chig'atoy xonodondan chiqqan so'nggi xoni chingiziylar avlodidan bo'lgan Qozonxonning qizi edi. Saroymulxonim bilan nikohdan so'ng Temur o'zining amirlik darajasiga “Ko'ragon” (Ba'zi manbalarda H. Vamberining “ Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kitobida “ Ko'ragon “ “Go'zal” ma'nosini bildirishi ko'ragon-ko'rkli,

³⁶ Abug'oziy. Shajarai turk. Toshkent. Cho'lpon.1992-yil. 95-96-betlar.

ko'rkam ekani aytiladi), yani "xonning kuyovi" unvonini qo'shib oladi va rasmiy hujjatlarni Amir Temur Ko'ragon nomi bilan yuritishga musharraf bo'ladi.³⁷

Shu boisdan ham Boburning memuarida Temur – "shoh" sifatida talqin etilmaydi. Biz ham tarixiy dalilga asoslanib, Temurni "amir" uning o'g'illarini "amirzodalar" sifatida alohida guruhga ajratdik. Shu o'rinda, keyinchalik Temurning vorislari – uning to'rt o'g'li hukmdor farzandi sifatida "shoh" darajasiga erishganligini ham qayd etib o'tish joiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida movarounnahrlik 25 nafar amir va amirzodalar nomi, ular haqida ma'lumotlar keltirilganini kuzatamiz. Movarounnahrlik hukmdorlar to'g'risida ma'lumotni muallif, dastavval, otasi Umarshayx mirzo haqida beradi. Shu o'rinda, Boburning hukmdorlar hayoti va faoliyatini tasvirlashda o'ziga xos usul ishlab chiqqanini aytish lozim bo'ladi. Birinchidan u hukmdorlarning nomini tilga olib, "Valodat va nasabi", "Shakl va shamoyili", "Axloq va atvori", "Masov va urushlari", "Viloyati", "Avlodi", "Xavotun va srori", "Umarisi" kabi sarlovhalar ostida ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tartib bilan bayon qiladi. Bobur asarida Umarshayx mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Boysung'ur mirzo, hamda Sulton Husayn mirzo haqidagi ma'lumotlarni bayon qilishda yuqorida sanab o'tilgan tartibga asoslanadi.

Muallif Umarshayx Mirzoning "valodat va nasabi" to'g'risida ma'lumot berar ekan, quyudagilarni yozadi: ... Sekkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid Mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning o'g'li edi. Mironshoh Mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi"³⁸

³⁷ Mamajonov A.M. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 1994-yil 20-bet.

³⁸ Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent. Sharq. 2002-yil 37-bet.

Shuni alohida qayd etish lozimki, qadimdan musulmon xalqlarida yeti ajdodni, yani “ haft pusht” ni aniq bilish keying avlodlarga urf bo’lgan. Bobur shu an’anaga muvofiq as arid bir qator tarixiy shaxslar haqida to’xtalib o’tar ekan, ularning o’tgan yetti ajdodi haqida, nasabi to’g’risida aniq geneologik ma’lumot berishga harakat qiladi.

Umarshayx mirzoning “ xavotun va sarori “ bayonida o’z onasi Qutlig’ Nigorxonim haqida fikr yuritar ekan, bobosi Yunusxonning ikkinchi o’g’li Chingizxonning naslindindur”, deb uning yetti pushtini birma-bir sanab o’tadi, yani “ Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali o’g’lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojagon ibn To’g’luq Temurxon ibn Esan Bug’axon ibn Duvaxon Baroqon ibn Yesun Tuva ibn Mutagon ibn Chig’atoyxon ibn Chingizxon “. ³⁹

Muallif Sulton Ahmad mirzo haqida yozar ekan, uning harakteridagi ayrim juziy nuqsonlarni ham bayon etadi.

Muallif har bir hukmdor haqidagi mulohazalarni berishda voqealarga aniq yondashadi. Ayniqsa, uning hukmdorlarning “ Masof va urushlari “ zikrida bayon qilgan voqealarni yozishda yuksak xotira egasi va o’tkir tarixchi ekanligini bilib olish qiyin emas. Chunonchi, Sulton Husayn mirzoning masof va urushlari to’g’risida gapirib, “ qozoqliqlarida bir martaba Gurgon suyini o’zdurib kechib, bir pora o’zbekni yaxshi bosdi. Yani bir qatla Sulton Abusaid mirzo Muhammad Ali baxshi boshlia uch ming kishini ilg’or yiborib edi. Sulton Husayn mirzo oltmish yigit bila kelib, tegib zarbi rost bosti. Sulton Husayn mirzoning bir yaxshi ishi va namoyon ishi budur.”⁴⁰ deb uning o’nlab kurashlari haqida ma’lumot beradi.

³⁹ O’sha asardan. 38-39-betlar.

⁴⁰ O’sha asardan 44-bet.

II. BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ BOBURNOMA” ASARI MUHIM TARIXIY MANBA.

2.1. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ BOBURNOMA” ASARINING MAZMUN MOHIYATI.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yozgan bo'lsada, ularning hammasi bizgacha yetib kelmagan.

Boburdan qolgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi geografiyasi, etnografiyasiga oid

nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyotida va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir.

Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon ma'teriali o'z ichiga olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga totgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsa-da, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy", deb ataladilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo'lib ketgan.

Bu asarning mavjud to'liq tekisti 1857-yilda turkolog N. I. Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bo'lgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N. I. Ilminskiyning zo'r faoliyat ko'rsatishini alohida qayd etish kerak.

Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz orientalistlaridan A. Beverij xonim "Boburnoma" ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko'chirilgani no'malum. Bu ham to'liq tekst bo'lsa-da, qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim ayrim nusxalardan xoli emasdir.

London nusxasining afzalligi shundaki, bunda A. Beverij nusxasining ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan, shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'z boshisi ham bor.

Mana shu ikkin mavjud nusxaga asoslanib, 1948-199-yillarda "Boburnoma" ning ikki qismidan iborat to'liq tekisti bosib tarqatilgan edi.⁴¹

⁴¹ Z.M.Bobur: "Boburnoma." I-II qism, T. 1948-1949-yillar nashrga tayyorlovchilar. P. Shamsiyev, S.Mirzayev.

Bu Nashr yangi o'zbek alifbosida, kishi va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi.

Shundan keyin "Boburnoma" ning to'liq tekisti 1960-yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi. Bu nashrni tayyorlashda ayrim so'z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalasida "Boburnoma" ning Anqara (Turkiya) da turkchaga qilingan tarjimasi va filologiya fanlari kandidati M. Salening ruschaga qilgan to'liq tarjimasini ham ko'zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan edi.

Asar shunday boshlanadi "Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindir. Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Qoshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun sharhlar bor ekanur, misli: Olmaliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mvasi farovon. Girdogirdi tog' voqe bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyi'a mashhurur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar, Xo'jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruhiyag'a mashhurur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroyq bu daryo tamom qumg'a singar, hech daryog'a qotilmas."⁴²

Asarda eng avvalo hududiy jihatdan chegaralarini yoritishdan boshlanadi va o'zining davlatinig chegaralari yotib berishdan boshlanadi. Undan keyingi betlarda Boburning avlodlari berilgan va uning avlodlari haqida shunday deyilga: "Valodat va nasabi: sekkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulto Abusaid mirzo Sulton

⁴² Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. Fan 1994-yil 28-bet

Muhammadmirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila jahongir mirzodin kichik. Shohruh mirzodin ulug' edi.”⁴³

Shuningdek asarda Umarshayx mirzoning farzandlari ham berilgan va ular haqida shunday yozilgan “ Avlodi: uch o'g'il, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o'glonlardin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Yana bir o'g'ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aningonasi mo'g'ulning tuman bekларidinn edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o'g'ul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, g'unchachi edi, Umid otliq. Mendin to'rt yosh kichik edi.

Bori qizlaridin ulug' Xonzodabegim edi, mening bilabir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug' erdi. Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi.

Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.

Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi.

“Havotun va saroyi: Qutlug' Nigorxonim edi, Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxonning egachisi edi.

Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidandur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali O'g'lon ibn Mbn Xizr Xojaxonibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Esun Tuva ibn Mutugon ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon.

Chun muncha taqrib bo'ldi, xonlarning ahvolini dag'I ijmol bila zikr qilaling. Yunusxon va Esan Bug'axon Vaysxonning o'g'lonlari edi. Yunusxon o'g'lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi. Yunusxonning onasi Turkistonliq qipchoq beklaridan Temurbek rioyat qilg'on shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'lur.

⁴³ L.P.Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. “Ma'naviyat”. 1998-yil 65-bet.

Vaysxonning voqeasida mo'g'ul ulusi ikki fariq bo'lur. Bir pora Yunusxon sari va ko'prog'I Esan Bo'g'axon sari bo'lur. Burunroq Yunusxonning egachisini Ulug'bek Mirzo Abdulaziz mirzog'a olib edi. Ul munosabat bila Erzan borin tuman beklaridan edi, xonni uch-to'rt ming uylik mo'g'ul ulusi bila Ulug'bek Mirzog'a kelturdilarkim, ko'mak olib yana mo'g'ul ulusini olg'aylar, mirzo muruvvat qilmadi, ba'zisini asir qildi, ba'zilarini birin-sirin viloyatqa pereshon qildi. Erzan buzug'lig'I mo'g'ul ulusida bir tarix bo'lubtur.

Xonni Iroq sari o'tkazib yo'bordilar. Borib bir yildan ortuqroq Tabrizda bo'ldi. Ul mahalda Tabriz podshohi Jahonshoh Boroniy Qoraqo'yluq edi. Andin Sheroz keldi. Sherozda Shohruh mirzoning ikkinchi o'g'li Ibrohim Sulton mirzo edi. Besh olti oydan so'ng Ibrohim mirzo o'lub, o'g'li Abdullo mirzo aning yerida o'lturdi. Abdullo mirzoga xon navkar edi, mulozamat qilur edi. O'n yetti, o'n sekkiz yil xon Sherozda va ul viloyatlarda bo'ldi.

Ulug'bek mirzoning va o'g'ullarining g'avg'osida Esan Bug'axonni yaxshi bosti. Muning fitnasining daf'ig'a Sulton Abusaid mirzo Yunusxonni bu munosabat bilakim, Abdulaziz mirzo olg'on egachisi xonimni olib erdi. Iroq va Xurosondin tilab to'ylar qilib, do'stlar bo'lib, mo'g'il ulusida xon qilib yiborganda, Sag'richi tuman beklari tamom ul fursatga Eson Bug'axondin yamonlab Mo'g'ulistong'a kelib edilar. Bularning orasig'a keldi. Ul fursatga Sag'richi beklarning ulugi Sher Hojibek erdi, aning qizi Esan Davlatbegimni bir oq kigiz ustiga o'lturg'uzib xon ko'tardilar.

Xonning bu Esan Davlatbegimdin uch qizi bo'ldi. Boridin ulug' Mehr Nigorxonim edikim, Sulton Abusaid mirzo ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzig'a qo'lub edi. Mirzodin hech o'g'ul va qiz bo'lmadi. So'ngra fatarotta Shayboniyxong'a tushub edi. Men Qobulg'a kelganda, Shohbegim bila Samarqandtin Xurosong'a kelib, Xurosondin Qobulda keldilar. Shayboniyxon Qandaxarda Nosir mirzoni qabag'onda, men Lamg'onazimati qildim. Xon mirzo va Shohbegim va Mehr Nigorbegim Badaxshong'a bordilar. Mirzoxonni Muborakshoh qal'ai Zafarg'a tilagida Abobakr Koshg'irningchopqunig'a yo'liqib,

Shohbegim va Mehr Nigorxonim va jami elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolim badkirdorning habsida dunyoyi foniyni vido qildilar.

Ikkinchi qizi mening validam – Qutlig' Nigorxonim edi. Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh – olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birda tengri rahmatig'a bordilar.

Uchununchi qiz Xo'b Nigorxonim edi, Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latqa berib edilar. Bir qizi, bir o'g'li bo'lib edi. Qizni Ubaydxon olib edi. Men Buxoro va Samarqandni olg'onda chiqmay qolib edi. Sulton Saidxondin amakisi Sayid Muhammad mirzo Samarqandg'a manga elchilikka kelganda anga qo'shulub bordi. Sulton Saidxon oldi. O'g'ul Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturganidin so'ng kelib, mening mulozimtimda uch- to'rt yil turib, so'ngra ijozat tilab Qoshg'arg'a, xon qoshig'a bordi." Shuningdek " Samarqand taxtig'a ulturg'och, Samarqand beklarini burungudek o'q rioya ba inoyat qildim, Bizing bila bo'lg'on beklarini ham faroxo'ri xollarig'a yarasha tarbiyat ba shavqat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig'a rioya ko'prak voqiy bo'ldi. Ichki beklar chargasida edi, ulug' beklar chargasida rioya qildim. Samarqandnikim, yetti oy muhosara qilib tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja-mo'jadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'ziga jami viloyatlar manga kirib edi, yo Sulton Ali mirzaog'a bu kirgan viloyatlarni chopib bo'lmas edi. Muncha talon va taroj tortg'on viloyatlardin nima olmoq xud nechuk muyassar bo'lg'ay. Cherik elining o'ljasi tugagandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob elikim, madad, tuxim va taqovig'a ehtiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jixatlardin cherik eli ko'p tanqislik tortdilar. Biz xam elga nima etkura olmadik. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar. Avval kishikim qochti Xonquli Bayonquli edi, yana Ibrohim Bekchik edi. Mug'ullar tomon qochtilar. So'ghra Sulton Axmad Tanbal ham qochti. Bu fitnaning taskini uchun Xoja qozini yubordukkim. Uzun Xasan Xojag'a o'zini xeyli muxlis va mutakid turar edi. Uzun Xasanning ittifoqi bila qochqonlarning bazisig'a sazo bergaylar, bazisini bizning qoshimizg'a yuborg'aylar. Bu fitnalarni angiz qilg'uchi, mundin qochib borg'onlarni yomonliqqa tez qilg'uchi xud Uzun Xasan

xaromnamak ekadur. Borchasi Sulton Axmad Tanbal borg'on bila zoxir va oshkora yomonliq maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduk, Sulton Maxmudxondin agarchi mutaddun bix madad va ko'mak bo'lmas edi, vale Samarqand fathidin so'ng Andijonni tama qilur edi.⁴⁴

“ Boburnoma” da Samarqand taxtiga o'tirganligi haqida shunday yozilgan : “ Samarqand taxtig'a o'lturg'och, Samarqand beklarini burungudek o'q rioyat va inoyat qildim. Bizing bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollarig'a yarasha tarbiyat va shafkat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig'a rioyat ko'prak voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasiga edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandnikim, yetti oy muhosara qilib tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja – mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jami viloyatlar mahga kirib edi, yo Sulton Ali mirzog'a bu kirgan viloyatlarni vhopib bo'lmas edi. Muncha talon va taroj tortg'on viloyatlardin nima olmaq xud nechuk muyassar bo'lg'ay edi.

Cherik elining o'lchasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob edikim, madad va tuxm vataqovig'a ehtiyoj bor edi. Chi joyi ulkim,kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin cherik eli ko'p tanqislik tortdilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Biror-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar. Avval kishikim qochdi Xonquli Bayonquli edi, yana Ibrohim Bekchik edi. Mo'g'ullar tamom qochdilar. So'ngra Sulton Ahmad Tanbal ham qochdi. Uzun Xasan Xojig'a o'zini xeyli muxlis va mutaqid tutar edi. Uzun Xasanning ittifoqi bila qochqonlarning ba'zisig'a sazo bergaylar, ba'zisini bizning qoshimizg'a yiborgaylar.

Bu fitnalarni angiz qig'uvchi, mundin qochib borg'onlarni yomonliqqa tez qilg'uchi xud Uzun Xasan haramnamak ekandur. Borchasi Sulton Ahmad Tanbal borg'on bila zohir va oshkora yomonlik maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduk, Sulton Mahmudxondin agarchi fatxidin so'ng Andijonni tama' qilur edi. Bu fursattakim aksar cherik eli

⁴⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur . Boburnoma. Toshkent. Yulduzcha nashri – 1989-yil 28-31-betlar

va mo'g'ullar tamom qochib Andijon , Axsig'a bordilar. Uzun Xasan va Tanbal ul viloyatlarni Jahongir mirzog'a tama' qildular. Necha jihatdin mumkin emas edikim, alarg'a berilgay. Biri ulkim agarchi xong'a bu viloyatlarni vada qilolmaydur edi, vale xon tilab edi. Xon tilab turub, Jahongir Mirzog'a berilsa, xon bila tamom yakro' bo'lmoq kerak edi. Yana bir bukim mundoq mahaldakim, el qochib ul viloyatqa bordi, tahakkum tariyqi bila tama' qiladur, agar burunroq bu so'z orada bo'lsa edi, filjumla vajhi bor erdi, alarning tahakkumini kim tortar bo'lg'ay? Mo'g'ul va Andijon cherikini va ba'zi beklardin ham Andijong'a borib edilar. “⁴⁵

Shuningdek “ Boburnoma “ asarida Hindiston haqida ham quyudagicha ta'rif berganlar: “ Hindiston mamoliki vase va purmardum va purhosil viloyat voqe bo'lubtur. Sharqi va janubi, balki g'arbi ham Muhit daryosig'a muntahi bo'lur. Shimoli bir tog'durkim, hindukush va kofiriston va kashmir tog'lari bila payvasttur. Jami Hindiston viloyatining poytaxti Dehli ermish. Sulton Shahobiddin G'uriydin so'ng, Sulton Feruzshohning oxir axdig'acha aksar Hinduston Dehli salotining taxti zabtida ekandur.

Bu tarixdakim, men Hindistonni fatx qildim, besh musulmon podshoh va ikki kofir Hindistonda saltanat qilurlar edi. Agarchi kichik kirim roy va roja tog' va janggalda xeyla bor edilar, vale mu'tabar va mustaqil bular edilar. Bir afg'onlar edikim, Dehli poytaxti alarda edi. Behradin bahorg'acha qobiz edilar. Afg'onlardin burun Junpur Sulton Husayn Sharqiyning qabzida edi. Bu jamoatni puriy derlar. Bularning otalri, Firuzshohdin so'ng junpur mamlakatig'a musallit bo'lubturlar.

Dehli Sulton Alouddinning iligida edi. Bu tabaqa sayidtur. Temurbek Dehlini olg'onda Dehli hukumatini bularning otalarig'a berib, borib edi. Sulton Bahlul Ludy Afg'on va o'g'li Sulton Iskandar Dehli poytaxti bila podshohnishin bo'ldi.

⁴⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. I-II-qism 1948-1949-yillar nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. S. Mirzayev. 56-57-betlar

Ikkinchi Gujoratga Sulton Muzaffar edi. Sulton Ibrohim fatxidin bir necha kun burunroq olamdin naql qildi. Bisyor mutasharre podshoh edi, tolibi ilmlig'I bor erdi, xadis mutolaa qilur erdi, doim mushaf kitobot qilur edi. Bu tabaqani tonk derlar. Bularning ham otalari Sulton firuzshoh va ul saloting'a sharobdor ekandurlar. Firuzshohdin so'ng Gujorat viloyatig'a qobiz bo'lubturlar.

Uchinchi Dakanda Baxmaniylar edi. Vale bu tarixta dakan salotinig'a ixtiyor va iqtidor qolmaydur edi. Tamom viloyatlarni ulug' beklar iliklab edi. Bir nimag'a ehtiyoj bo'lsa, beklardin tilar edi.

To'rtinchi Molva viloyatidakim, Mandov ham derlar, Sulton Mahmud edi. Bu tabaqani xaljiy derlar. Muni Rono Sango kofir bosib, aksar viloyatig'a qobiz bo'lib edi, bu ham zaif bo'lib edi. Bularning otalari Feruzshohning tarbiyatkardalaridin ekandur. Andin so'ngra Molva viloyatig'a qobiz bo'lubturlar.

Beshinchi Bangola viloyatida Nusratshoh edi. Otasi bangolada podshoh bo'lib edi. Sayid va Sulton Aloudding'a mulaqqab edi. Munga saltanat meros tegib edi. Ajab rasmedur, bangolada saltanat merosi kamroq bo'lur. Podshohning bir muayyan taxti bor. Umaro va vuzaro va sipohi va raiyat barcha anga itoat va inqiyot qilurlar. Burung'i podshohidek podshoh va farmonravo bilurlar. Bangola elining so'zi budurkim, biz taxti halolxuridurbiz. Har kim taxt ustiga bo'lsa, biz ang'a mute va mundoqdurbiz. Nechukkim, Nusratshohning otasi Sulton Alouddindin burun bir haboshiy podshohini o'lturib, taxtqa chiqib, muddate saltanat qildi. Habashiyni Sulton Alouddindin so'ng, irs tariyqi bila holo o'g'li podshoh bo'lubtur.⁴⁶

“Boburnoma” da Xusayn Bayqoroga chizgilar berilar ekan biz bunga alohida e'tibor qaratdik. Sulton Xusayn Bayqoroning talqini qanday muhitda yashaganligin, qanday shaxs bo'lgani salbiy va ijobiy tomonlarini, serqirra ijodlarini, ilm-fan, ma'daniyat va san'at qo'shgan katta hissalarini, ayollari va farzandlari ular o'rtasidagi ziddiyatlar, sohibqiron Amir Temur bilan o'xshash tomonlarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik.

⁴⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. Yulduzcha nashriyoti. 1989-yil 248-249-betlar.

Xusayn Bayqoro hozirgi kunda to'liq mukammal xolisona o'rganilmagan. Chunki murakkab shaxs, taqdir egasidir. Sulton Xusayn Bayqoroni o'rganishda birinchi manba bo'lib Zahiriddin Muhammad Mirzo Boburning jahonga mashhur bo'lgan “ Boburnoma” asaridir.⁴⁷

Mustaqillik yillarida talaygina asarlar, monografiyalar, maqolalar chop etilgan. Bu asarlarda turlicha yondashuv mavjud, lekin “ Boburnoma “ davr ruhi bilan yozilgan. Sulton Xusayn Boyqoro temuriy hukmdorlar ichida saltanat taxtida uzoq o'tirgan adolatli podsholardan biri bo'lgan. U hukmronlik qilgan 1469-1506 yillarda ilm- fan, ma'rifat me'morchilik va turli sohalarda o'zini yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Xuroson ayniqsa uning poytaxti Xirot shahri Bobur tili bilan aytganda, birga o'n, balki yigirma barobar taraqqiy qilgan edi. Bobur mirzo Xusayn Bayqoro va Xirot shahri haqida quyidagicha ta'rif bergan: “ Xirot o'zining faqat odobliligi bilangina emas, birinchi galda shoir, fan arbobi Alisher Navoiy va Abduraxmon Jomiyning sa'y harakatlari natijasida madaniy markaz sifatida ham nom qozongan edi. Sulton Xusayn Mirzo zamoni xub ajab zamon edi, axli fazl va benazir eldin Xuroson shahri edi. Har kishining kim bir ishga mashg'ulligi bor edi. Himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolga yetkazgay.”

Bobur Xusayn Bayqoroning atrofini o'ragan muhitdan kelib chiqib unga xos bo'lgan ayrim chizgilar orqali ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Albatta Xusayn Bayqoroning shaxsiyati va faoliyatiga turlicha baho berish mumkin. Bobur bu murakkab shaxsni ta'riflar ekan uning faoliyatini har tomonlama izohlashga, jamiyat xayoti uchun foydali bo'lgan ijobiy tomonlarini ham, kamchiliklarini ham xolisona o'rganishga intildi. Bobur Xusayn Bayqoroni tasvirlashda bo'rttirma emas balki ijobiy ma'noda tasvirleydi. Bobur u haqida yana shunday dedi, “ Qiyyiq ko'zlik , sher andom buyluk kishi edi. Belidan quyu ingichka edi. Bovujudkim ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lib edi, xushrang qizil yashil abrashimni kiyar edi. Qora ko'zi

⁴⁷ Fayziyev T.Xusayn Bayqoroning sirli o'limi. Toshkent 1995-yil 44-bet

burk kiyar edi, yo qalpoq. Ahyonan iydarda kichik ingichka dastorini yangi namyon chirmon chirmab, karkara utagan sanchib, namozga borur edi.“⁴⁸

Tarixchi Xondamirning yozishicha, qirqqa yaqin inshootlar Sulton Xusayn Bayqoro davrida vujudga kelgan. Ko'rinib turibdiki Mirzo Xusayn Bayqoro o'z davrining odil podshosi, fan va madaniyat, me'morchilik homiysi bo'lgan.

Buyuk bobomiz Amir Temur va Sulton Xusayn Bayqoro hayot yo'llarini o'rganish mobaynida ular o'rtasida juda ko'p o'xshashliklarni uchratamiz.

“ Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning yozishicha, Qosim Xusayn Sulton Hindistonga Bobur podsho xizmatiga borgan. Bobur podshoh unga Badavun hokimligini inom qilgan. Keyinroq esa Abdulla Sulton ham Bobur podshoh xizmatiga borgan. U haqida Bobur shunday yozgan: Bovujudkim kichik yoshliktu, xizmati yomon edam.”Xusayn Bayqoroning o'g'illari haqida “Boburnoma”da, Turg'un Fayziyevning “Xusayn Bayqoroning sirli o'limi”, “Xusayn Bayqoro” va boshqa manbalarda uchratishimiz mumkin. “Boburnoma”da shuningdek, Binoiy talqinini ham ko'rib o'tamiz .

Zahiriddin Muhammad Bobur “ Boburnoma” asarida Binoiyga quyudagicha ta'rif bergan. “ shuarodin... yana Binoiy edi, Xirilik tur otasi ustod Muhammad Sabz banno uchun shundoq taxallus qilib tur. G'azalida rang va xol bordur, devon tartib qilubdur, masnaviylari ham bor. Bir masnaviysi mevalar bobida, mutakorib bahorida, bemuxassal nima debtur, bekore qilubdur. Yana bir muxtasar masnaviysi bor, xafif baxrida. Burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta'na qilur ekandur. Bir yil Mirzo Sulton Xusayn qishlay borganda Alisherbek ham borur. Binoiy Xirida qolur. Ul kishi musiqiy mashq

⁴⁸ Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O'zbekiston. 1983-yil 56-bet.

qilur, yozgacha ancha bulurkim , ishlar bog'lar. Yoz Mirzo kelganda savt va naqsh utqarir. Alisherbek tahsin qilur.”

“Binoiy Alisherbekka xili mutaarriz (ya’ni qarshiligi bor ma’nosid) ekandur. Bu jihatdin xili jafolar tortdi. Oxir tura olmay Iroq va Ozarbayjonga Yaqubbek qoshiga bordi. Yaqubbek qoshida yomon emas edi. Yaqubbek o’lgandin so’ng ul viloyatlarda turmay Xiriga (Xirotda) ga keldi. Xanuz zarofat va taarruzi bor edi. Yani xusumati bor edi. Ul jumladin biri budurkim, bir kun shatranj majlisida Alisherbekka oyog’ini uzatur . Binoiyning orqasiga tegar, Alisherbek mutayaba bila balodirki, agar balodur. Xiri agar poy daroz mekuni ba (pushti) ga shoir merasad” (“ ajab bir balodirki, agar Xirotda oyog’ingni uzatsang, shoir ketiga tegasan”) Binoiy deydi: “ agar jam mekuni ham ba pushti shoir merasad “ (“ yiqqaningda ham shoir ketiga tegadi”) oxir u zarofatlardan yana Xiridin Samarqand azamati qildi”⁴⁹

“ Boburnoma “ da Alisher Navoiyga ta’rif ham juda chiroyli berilgan va quyidagicha. Zahiriddin Muhammad Bobur “ Boburnoma “ asarida Alisher Navoiyga quyidagicha tarif beradi : “ Bu ikkinchi navbat Samarqand olganda Alisherbek tirik edi. Bir navbat kitoboti ham kelib edi. Men har bir kitobot yuborib ediki, orqasida turkiy bayt aytib yuborib edim, javob kelgunicha tafrik va gavgo bo’ldi. Ya’ni Bobur aytmochniki ikkinchi marta Samarqandni egallaganimda Navoiy tirik edi., men orqasida turkiy she’r yozilgan bir kitob yubordim javobi kelguncha Navoiy olamdan o’tadi. Ming afsuski Bobur Mirzoga Navoiy bilan uchrashish nasib etmagan ekan.”⁵⁰

2.2. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ BOBURNOMA “ ASARINING TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI.

⁴⁹ Z. M. Bobur, Boburnoma. Toshkent . Yulduz nashriyot 1989-yil. 38-bet.

⁵⁰ Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. O’zbekiston. 1983-yil 48-bet.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar xayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “ Boburnoma “ alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy- lingvistik ma'lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish , jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalandiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy – tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o'zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir. Shoir o'z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O'nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she'riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko'rinishini, fe'l atvorini, odatlari, o'tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta'rif etiladi.⁵¹

Asardagi markaziy obraz Boburning o'zi, albatta. Uning his tuyg'ulariga boy qalbi ko'z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “ Boburnoma “ va uning muallifi haqida: “ Uning shaxsiy his – tuyg'ulari har qanday mubolag'adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O'z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko'zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “ Boburnoma “ O'rta O'siyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir ” deb yozadi. Bobur O'rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabodot olami to'g'risida boy ma'lumot bergan. Xususan, “Boburnoma”da hindlarning etnografiysi, ilmu fani, san'at va madaniyati haqida va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) qimmatli faktlar bor. Taniqli hind hind shoiri Mulk

⁵¹ Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent . Yulduz nashriyot 1989-yil. 18-bet.

Roj Anand Osiyo so'zlagan nutqida: “ Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O'zbekistondagi singari bizda ham “ Boburnoma “ g'oyat qadrlanadi.” Degani bejis emas edi. Davrning juda ko'p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o'zbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishi bilan “ Boburnoma “ Alisher Navoiyning “ Xamsa” siga qiyos qilgudek madaniy obida hisoblanadi. Asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o'zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham fikrimizning isbotidir. “ Boburnoma “ fors tiliga birinchi marta 1589-yili shoirning nevarasi Shoh Akbar saroyida xizmatda bo'lgan Abdurahimxon ibn Bayramxon Xoni Xonon tomonidan tarjima qilindi. Tarjima ko'p nusxada ko'chirilib, “ Voqeati Boburiy“, “ Tarixi Boburshohiy “ nomlari ostida Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. Abdurahimxon tarjimada Boburning o'ziga xos bayon tarzini bera olgan, asar fors adabiyoti va tarixchiligida ulkan yangilik sifatida qabul qilingan. Qamrab olingan tarixiy voqealarning ro'yi-rost ko'rsatilishi, ilmiy faktlarga boyligi bilangina emas, balki ravon uslubi, sodda va jozibadorligi bilan ham Bobur asari o'zidan keyin yaratilgan tarixiy memuarlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, Gulbadanbegimning “ Humoyunnoma “ va Nizomiddin Hiraviyning “ Tabaqoti Akbarshohiy “ kabi kitoblari buni yaqqol his etish mumkin. Shuni yatish kerakki, XVI asrdan boshlab o'zbek adabiyotining yana boshqa namunalari ham fors tiliga tarjima qilindi. Sharqning ilg'or ziyolilari turkiyda (eski o'zbek tilida) yaratilgan adabiyotning katta nufuzga ega ekanligini ko'rib ilm ahlini bu tilni o'rganishga da'vat eta boshlaydilar. Navoiy va Boburning ajoyib asarlarni tarjima qilib, forsiydonlarni baxramand etishni muhim vazifa deb biladilar. Chunonchi, “ Majolis un-nafoyis “ni 1521-yilda Forschaga o'giran Sulton Muhammad Faxriy Xirotiy yozadi: “ Ba'zi e'tiborli va xurmatli kishilar turkey iborasi (tili)dan behabar bo'lganlari sababli bu go'zal so'zlarning mavjidan va bu san'atlar dengizining duru gavharlaridan bebahradirlar. Bu taassufli axvol edi va shuning uchun turk go'zali kabi parda ichida qolgan bu dilafro'zning yuzidan pardani ko'tarishni va mo'jizali xayolot yaratgan bu zebo suratni fazilat va kamol ahliga pardasiz ko'rsatishni niyat etdim.” “ Boburnoma “ qo'lyozmalarining

chiroyli rasmlar bilan bezatilishi ham tarjimaning shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan. Uning saroyida 104nafar rassom doimiy ish olib brogan. Tarjimon Abdurahimxonning o'zi ham rasm chizish bilan shug'ullangan. Akbar saroyida o'nlab kitoblarga rasmlar chizilgan. "Boburnoma" ning forsiy nushalariga ishlangan miniaturalar Sharq rassomlik san'atining ajoyib namunalari hisoblanadi. Ingliz sharqshunosi L. King bergan ma'lumotiga qaraganda, "Boburnoma" o'z asarida yana ikki marta Muhammadquli va Zayniddin Xavofiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Biroq bu tarjima qo'lyozmalarining qqyerda saqlanishini olim aytmaydi. Abdurahimxon tarjimasi Britaniya muzeyida va Maskvadagi Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi. Fotonusxasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyimiada ham bor. G'arb olimlari "Boburnoma" bilan dastlab ana shu forsiy nusxalar orqali tanishadilar. Yevropa sharqshunoslari orasida Vitsen birinchi marta "Boburnoma" bilan qiziqib, undan ayrim qismlari golland tiliga tarjima qiladi. (1705-yil).⁵²

XIX asr boshlariga kelib, asar butun Yevropa ilm ahliga ma'lum bo'lgan. Bobur merosining jahoniy shuxratida, ayniqsa, ingliz sharqshunoslarining xizmati ulkandir. Ular "Boburnoma" ni tarjima qilish va nashr etishdagina emas, balki tadqiq va targ'ib etish borasida ham birinchilikni egallaydilar. 1816-yilning 12-aprelida Uilyam Erskin Bo'mbaydan turib, Londindagi nozirlarga yozgan xatida tugabmas ganjina topib olganlik xursandligini bildiradi va "Boburnoma" ni tarjima qilayotganidan xabar beradi. U. Erskinning J. Layden bilan hamkorlikdagi tarjimasi 1826-yilda bosilib chiqdi. Tarjimonlar asarning o'zbekcha va forscha nusxalarini asos qilib oldilar. U. Erskin kitobga kattagina muqaddima yozib berdi. Bobur va uning asarlarini ingliz kitoblariga tanisgtiradi : " Biz Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan kam uchratamiz. Aqlining aktiv faoliyati, xushchaxchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirining nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podsholar orasida juda kam uchraydigan sahiyligi, mardligi, istedodligi, fanga, san'atga muhabbat va ular

⁵² T. Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent. Yozuvchi-1995-yil.

bilan faol shug'ullanishi jihatdan Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo'q." J. Layden va U. Erskin tarjimasini 1921-yili Oksford universiteti nasrgiyoti tomonidan ko'p jildli qilib, ikkinchi marta chop etildi. Bu nashrda Dublin universitetining professori L. Kivt so'zboshi yozib, " Boburnoma " nashrlari, uning jahon qo'lyozma fondlaridagi nusxalari, tarjimalari haqida ma'lumot beradi, inglizcha variantni qayta taxrirdan chiqaradi. Birinchi jildning yarmini tashkil etadigan ilmiy ocherkida u Movarounnahr va Xuroson tarixi, geografiyasi, Bobur tilga olgan Samarqand, Andijon, O'ratepa, Kobul va boshqa shaharlarning hozirgi ahvolini keng yoritgan. Mazkur nashrning yana bir fazilati shundaki, tarjimaning ilmiy aniqligini ta'minlash uchun xoshiyalarda ko'p miqdorda izoh va sharxlar berilgan, kitobdagi she'rlarning kimga taaluqli ekanligi va qaysi tilda yozilgani ham ko'rsatilgan. Ingliz sharqshunoslaridan A. Beverij xonim 1902-yili " Boburnoma " ning Xaydarobotd nusxasini faksimile xolida chop ettiradi. (U 1971-yili Londonda qayta nashr etildi.)

Mazkur nashr asarning yana kengroq ommalashuviga sabab bo'ldi. Asarning M. Sale bajargan ruscha tarjimasini hamda 1960-yili P. Shamsiyev va S. Mirzayev tayyorlagan o'zbekcha nashri ana shu A. Beverij xonim nashriga asoslangan. " Boburnoma " P. M. Kaldekot tomonidan ingliz tiliga qisqartirib tarjima qilindi. XX asr oxirlarida F. J. Talbot ham asarni tarjima qilib, suratlar bilan nashr ettiradi. Shuningdek, Bobur asarlarining Turkiyada tarqalishiga atoqli olim Rashot Raxmon Oratning xizmati katta. Ingliz tilida Bobur hatyoti va ijodini o'rganishga talay maxsus monografiyalar yaratildi. Len Poolning " Bobur " (Oksford 1899-yil) va Xarold Lembning " Bobur yo'lbars " (Nyu-York 1961-yil) nomli kitoblari shular jumlasidandir. Ayniqsa, keying kitob qiziqarli adabiy tarixiy ocherk uslubida yozilgan. Buni kitobning ichki bo'limlariga qo'yilgan " Vodiydagi voqealar ", " Samarqanddan quvilish ", " Qobuldagi saltanat ", " Hirotda xiyofat ", " Bobur va uning eli ", " Hindiston sari yurish ", " Panipat va Kanvand ", " Buyuk mo'g'ullar imperiyasi ", kabi sarlavhalardan ham bilish mumkin. X. Lemb Boburning adabiy merosidan ilmiy ma'lumot sifatida keng foydalangan, ko'proq " Boburnoma " ga murojat etib, undan talay parchalar

tarjimasini ham keltirgan. Bundan tashqari, u Mirzo Bobur yurgan yo'llarning ot va tuyada kezib chiqqan. Shu tariqa, bu asar amalda Bobur haqidagi tarixiy roman ko'rinishini olgan edi. Sharq xalqlari tarixi bilan shug'ullangan yana boshqa ingliz va amerikalik olimlar Boburning shaxsiy qobiliyati va faoliyatiga yuqori baho berib, uni qadimgi Rim sarkardasi Yuliy Sezar bilan qiyoslaydilar. "Boburnoma" 1828-yili A. Kayzer tomonidan nemis tiliga qisqartirib va 1871-yili P. Kurtyl tomonidan fransuz tiliga to'la xolda tarjima qilingan. Zamondoshimiz atoqli sharqshunos olim J. L. Boite Grammon "Boburnoma" ning fransuz tilidagi yangi tarjimasini yaratdi. U bir necha bor yurtimizga kelib, o'zbek xalqining turmush tarzi, tarixi bilan yaqindan tanishdi. Grammon, shuningdek Gulbadanbegimning "Temur tuzuklari" va "Xumoyunnoma" asarlarini ham fransuz tiliga tarjima qilgan. 1912-yilda Tog'aymurod Qorluq Xatloniy uni yana bir marta fors tiliga tarjima qildi. Bu tarjima qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. 1944-1946-yillarda esa asar usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Anqarada ikki jildda bosilgan. Rossiyada "Boburnoma" ancha ilgari paydo bo'lgan edi. Sharqshunos N. Ilminskiy 1857-yili asarni asl xolid Qozon shahrida chop etilgan. XIX asr oxirlarida "Boburnoma" dan ayrim qismlar I. Pantusov, S. Polyakov, V. Vyatkin tarjimasida rus kitobxonlariga qisman taqdim etilgan bo'lsada, yaxlit ruscha tarjimasini amalga oshirilmagan edi. Bu sharafl va xayrli ish mohir tarjimon va olim M. Sale tomonidan bajarildi va asar 1958-yili Toshkentda bosmadan chiqarildi. M. Sale tarjima ustida o'n yildan ko'proq vaqt mehnat qildi, asar tilini chuqur o'rgandi. Behad ko'p atamalar, ibora va nomlar transkripsiyasini berish, shuningdek, Bobur qalamining "mardona uslubini" saqlashga muvaffaq bo'ldi. Shunga qaramay, M. Sale tarjimasida xamon talay noaniqliklar mavjud. "Boburnoma" dagi bir qancha nomlar noto'g'ri berilgan. Chunonchi, Axmad Mirzo sevgilisi Qutluqbegim "Katak begim" bo'lib ketgan, "bukalamun", "muchu" kabi ba'zi so'z va iboralar tarjimasiz va izoxsiz keltirilgani sababli rus kitobxoniga tushunarsiz bo'lib qolgan. She'riy parchalar nasriy tarjimada berilib, ularning qaysi tilda yozilgani

ham ko'rsatilmagan. Tarjima va nashrlardagi nuqsonlarning aksariyati asarning ilmiy tanqidiy matniga ehtiyoj borligidan kelib chiqqan. " boburnoma " ning mavjud nashrlari, hatto o'zbekcha nashri ham, asar haqida to'la tasavvur berolmaydi. Negaki, ruscha nashrda ham, eng so'nggi o'zbekcha nashrda ham 1509-yildan 1518-yilgacha va 1524-yilgacha bo'lgan voqealar bayoni yo'q. Shunga o'xshash talay noaniqliklarni bartaraf etish uchun " Boburnoma "ning eng e'tiborli qo'lyozma nusxalarini chog'ishtirib, uning ilmiy matnini tayyorlash zarur edi. Va nihoyat, bu ishni yaponiyalik boburshunos olimlar amalga oshirdilar. Asarning tanqidiy matni yaratilib, nashr etildi. Ko'rinib turinibdiki, Mirzo Boburning hayoti va ijodi turli mamlakatlarda o'rganilmoqda va xalqaro ilmiy hamkorlik vositasiga aylanib, bormoqda. Bu ham o'zbek xalqining ulug' istedodi, iftixoridan nishonadir. Har bir xalqning tarixiy, madaniy milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. Insoniyatning adabiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z o'rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina " Boburnoma " uning yigirmadan ortiq sohalariga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Shoh Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi. Balki, boburiylar jahon tarixida eng uzoq yillar (332) hukmronlik qilgan sulola bo'lib chiqar... U podshoh sifatida lasgkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug'vor nasgidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug' himmatli va oily maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intilti. U yerda Shayboniixonidan yengilib, Qobulga keldi va keyin Hindistondek bepayon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi. Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'alarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq kanallar qazish , bog'- rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish

singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi.⁵³

Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javoharla'l Neru o'zining " Hindistonning ochilishi " va " Jahon tarixiga bir nazar " asarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan: " Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo'lgan. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mansabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'at va ayniqsa, adabiyotni sevardi."

Bugun Hindistonning Panipat shahriga borgan kishi Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan tarixiy muzaffarona jang manzaralarini shaharning ochiq osmoni ostidagi muzeyda ko'rarkan, ulug' hind xalqining Boburga nisbatan hurmat-ehtiromi kuchliligiga amin bo'ladi. Yoki Bangladesh poytaxti Dakka shahrini kezgan kishi " La'lbog'qal'a " tarixiy muzeyga kirib Bobur va Boburiylarga bag'ishlangan xonalarni, kezarkan, Bobur va uning vorislariga tegishli, kiyimlar uy -ro'zg'or buyumlari, xarbiy qurol-aslahalari, Usdot Aliquli qo'ygan toshotar to'plar, miltiqlar- tufaklar, sovut, qilich-qalqonlar, dubulg'a, ot kiyimlarini (ot va qilich zarbasidan himoya qiluvchi yopinchiqlar), usha davr kishilari o'z zamonlari libosida tomosha qilgan kishi Hindiston va Bangladesh xalqlarining Bobur va Boburiylarga bo'lgan hurmatlarini yorqin tasavvur eta oladi. Bu moziygohda bo'lgan adib Qamchibek Kenja "Andijondan Dakkagacha " nomli safarnomasida hayajonini yashira olmay yozadi: " Hindiston va Pokiston shaharlarida ko'p moziygohlarda, jumladan Haydarabotdagi mashhur Solarjang, Loxurdagi milliy muzeylarda bo'lgan. Lekin Sharq olimining olis bir chetida faqat va faqat Boburiylar hayoti, ularning podsholik faoliyatiga oid yagona, maxsus muzeyni ko'ramiz, deb sira o'ylamagan edik ". Hindiston va Bangladeshda Bobur va Boburiylar saltanati shunchalik

⁵³ Mamajonov .A.M. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 1994-yil 200-bet.

qadrlanishidan Bobur va vorislarining podsholiklari bu yurtlarda hayrli chuqur iz qoldirganligi ma'lum bo'ldi. “ Boburnoma “ ning kitobi Boburning ulug' podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etgan: “ Va maholdurkim, ul podshohi Qobulning yaxshiliklarini aytgan bilan va bitigan bilan tugangay. Lekin mujammal bukim sekkiz sifati asl aning zotiga mutassil edi: birisi bukim, najhati baland edi; ikkimchisi, himmati arjumand edi; uchumchisi, viloyat olmog'; to'rtimchisi, viloyat saxlamog'; beshumchisi, ma'murlug'; oltimchisi, rafohiyat niyati tengri taolo bandalarig'a; yettimchisi, cherikni ko'ngli qo'lg'a olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq “. (Matn tabdili: “ U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buki, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: biri bukim – iqboli baland edi; ikkinchisi- himmati yuksak edi; uchinchisi- viloyat olmoq ; to'rtinchisi – viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma'murlik; oltinchisi – Olloh bandalariga farovonlik niyati; yettinchisi – lashkar ko'nglini qo'lga olmoq; sekkizinchisi – adolat qilmoq “.) Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH sharqshunos – tarixchi olimlari diqqat e'tiborini o'ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduart Holden, avvalo, Boburni mashhur yuliyb Sezir bilan qiyoslashni lozim topadi: “ Bobur fel atvoriga ko'ra Sezirga qaraganda sevvishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan”. Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlik yillari haqida roman yozgan “ Boburnoma “ ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “ Saxovati va mardligi, istedodi, ilm- fan san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.⁵⁴

Havotun va saroyi: Qutlug' Nigorxonim edi, Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxonning egachisi edi.

Yunusxon Chingisxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidandur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali O'g'lon ibn Mbn Xizr Xojaxonibn Tug'luq

⁵⁴ Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent . Yulduz nashriyot 1989-yil. 13-bet.

Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Esun Tuva ibn Mutugon ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon.

Chun muncha taqrib bo'ldi, xonlarning ahvolini dag'I ijmol bila zikr qilaling. Yunusxon va Esan Bug'axon Vaysxonning o'g'lonlari edi. Yunusxon o'g'lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi. Yunusxonning onasi Turkistonliq qipchoq beklaridan Temurbek rioyat qilg'on shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'lur.

Vaysxonning voqeasida mo'g'ul ulusi ikki fariq bo'lur. Bir pora Yunusxon sari va ko'prog'I Esan Bo'g'axon sari bo'lur. Burunroq Yunusxonning egachisini Ulug'bek Mirzo Abdulaziz mirzog'a olib edi. Ul munosabat bila Erzan borin tuman beklaridan edi, xonni uch-to'rt ming uylik mo'g'ul ulusi bila Ulug'bek Mirzog'a kelturdilarkim, ko'mak olib yana mo'g'ul ulusini olg'aylar, mirzo muruvvat qilmadi, ba'zisini asir qildi, ba'zilarini birin-sirin viloyatqa pereshon qildi. Erzan buzug'lig'I mo'g'ul ulusida bir tarix bo'lubtur.

Xonni Iroq sari o'tkazib yubordilar. Borib bir yildan ortuqroq Tabrizda bo'ldi. Ul mahalda Tabriz podshohi Jahonshoh Boroniy Qoraqo'yliq edi. Andin Sheroz keldi. Sherozda Shohruh mirzoning ikkinchi o'g'li Ibrohim Sulton mirzo edi. Besh olti oydan so'ng Ibrohim mirzo o'lub, o'g'li Abdullo mirzo aning yerida o'lturdi. Abdullo mirzoga xon navkar edi, mulozamat qilur edi. O'n yetti, o'n sekkiz yil xon Sherozda va ul viloyatlarda bo'ldi.⁵⁵ Ulug'bek mirzoning va o'g'ullarining g'avg'osida Esan Bug'axonni yaxshi bosti. Muning fitnasining daf'ig'a Sulton Abusaid mirzo Yunusxonni bu munosabat bilakim, Abdulaziz mirzo olg'on egachisi xonimni olib erdi. Iroq va Xurosondin tilab to'ylar qilib, do'stlar bo'lib, mo'g'il ulusida xon qilib yiborganda, Sag'richi tuman beklari tamom ul fursatga Eson Bug'axondin yamonlab Mo'g'ulistong'a kelib edilar. Bularning orasig'a keldi. Ul fursatga Sag'richi beklarning ulugi Sher Hojibek erdi, aning qizi Esan Davlatbegimni bir oq kigiz ustiga o'lturg'uzib xon ko'tardilar.

⁵⁵ Vahob Rahmonov "Ma'rifat" gazetasi 2008-yil

Xonning bu Esan Davlatbegimdin uch qizi bo'ldi. Boridin ulug' Mehr Nigorxonim edikim, Sulton Abusaid mirzo ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzig'a qo'lub edi. Mirzodin hech o'g'ul va qiz bo'lmadi. So'gnra fatarotta Shayboniyxong'a tushub edi. Men Qobulg'a kelganda, Shohbegim bila Samarqandtin Xurosong'a kelib, Xurosondin Qobulda keldilar. Shayboniyxon Qandaxarda Nosir mirzoni qabag'onda, men Lamg'onazimati qildim. Xon mirzo va Shohbegim va Mehr Nigorbegim Badaxshong'a bordilar. Mirzoxonni Muborakshoh qal'ai Zafarg'a tilagida Abobakr Koshg'irningchopqunig'a yo'liqib, Shohbegim va Mehr Nigorxonim va jami elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolim badkirdorning habsida dunyoyi foniyni vido qildilar.

Ikkinchi qizi mening validam – Qutlig' Nigorxonim edi. Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh – olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birda tengri rahmatig'a bordilar.

Uchununchi qiz Xo'b Nigorxonim edi, Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latqa berib edilar. Bir qizi, bir o'g'li

“ Boburnoma” da tarixiy shaxslar talqini ham to'xtalar ekanmiz shu o'rinda Zahiriddin Muhammad Boburning shoh va shoirligini mulohazamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma “asari tarixiy adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e'tiborliki, asarda ko'plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san'at ahllari, din peshvolari, shox va shaxzodalar, beklar, amiru umarolar haqida ma'lumotlar uchraydi. “ Boburnoma “ da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shoxlar, viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, askar boshliqlar, din va namoyondalari, askarlar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahillari, dehqonlar, hunarmandlar, qullar va boshqa ijtimoiy guruhdagi lavozim va kasbkordagi kishilardir. Bobur ularning tasvirlanayotgan voqealardagi roliga qarab birlari haqida keng va batafsil so'zlaydi , ikkinchi birlari haqida qisqa ma'lumot beradi, boshqa birlarini biron munosabat bilan tilga oladi yoki eslab o'tadi. U voqealarning rivojida muhimroq o'rin tutgan Umarshayx Mirzo , Husayn Bayqoro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning

shakl-shamoili, nasl-nasabi, ma'naviy qiyofasi, hislati, xulq - atvori, kishilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarni ham tasvirlaydi. "Boburnoma" da ilm-fan, san'at va adabiyot ahillariga katta o'rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn, Muammoniy, Shayxim Suhayli, Yusuf Badeyniy, Ahmad Xojibek, Behzod, Sulton Ali, Hoji Abdulla Marvoriy, Shoh Muzaffar, G'ulom Shodiy, Husayn Uddiy kabi bir qator shoirlar va san'atkorlar haqida ma'lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba'zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatlari haqida qiziqarli fikrlar so'zlaydi. "Boburnoma" bu kishilarning hayoti va faoliyatini o'rganishda ularning madaniy hayotidagi o'rnini belgilashda juda ahamiyatlidir. Natijada biz Bobur zamonida yashagan va tariximiz, ma'naviyatimizda muhim voqeaga ega bo'lgan davlat va madaniyat arboblari bilan ham tanishamiz.

Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Bu kabi qimmatli ma'lumotlar va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun muhimdir. Demak bundan ko'rinib turibdiki, "Boburnoma" XV asrning so'nggi XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar yuzasidan tadqiqot olib borgan M. Abdullayevaning ma'lumotiga ko'ra "Boburnoma" da hammasi bo'lib 1540 nafar kishi nomlari tilag olingan bo'lib, shundan 357 nafari Movarounnahrlik tarixiy shaxslarning nomlaridir. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslar nomidir. Asarda Bobur tarixiy voqealarni bayon etish bilangina cheklanmaydi, balki voqealar sodir bo'layotgan sharoit manzarasini, tarixiy shaxslarning qiyofasi va xulqini, tabiat lavhalarini batafsil tasvirlaydi, turli sarguzashtlar, rivoyat va latifalarni jozibador badiiy uslubda hikoya qiladi, asarni she'riy parchalar, xalq maqollari va hikmatlari bilan orasta qiladi, anvoi badiiy usullar va til san'atidan foydalanadi. "Boburnoma" dan olingan "Alisher Navoiy ta'rifi", "Andijon tasviri", "Samarqand tasviri" bunga yorqin misol bo'la oladi. "Boburnoma" da bir necha yuzlab tarixiy masalalarga tavsif beriladi, ularning faoliyati, sarguzashtlari tasvirlanadi. Bular shohlar, hokimlar, amaldorlar,

lashkarboshilar, din shariatlari arboblari, askarlar, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, turli mehnatkash tabaqalarning vakillari va hokazolaridir. Bular jamiyatda tutgan o'rni, qarash va manfaatlar, siyosiy maslagi, xulq-atvori, hatti-harakati, turlicha odamlardir. Bobur voqealar ishtirokchilarini tasvirlayotganda mana shu jihatlarning hammasiga e'tibor beradi. Odamlarning takrorlanmas faqat ularning o'zigagina xos xususiyatlarini tanlab oladi, tarixiy haqiqatga to'la rioya qilgan holda qalam suradi, g'oyat ishonarli real qiyofalar yaratadi.⁵⁶

Bobur tarixiy shaxslarga, hatto o'ziga dushman kishilarga ham beg'araz munosabatda bo'ladi, ular haqida xolis ma'lumot beradi, faoliyatlari va fel-atvoridagi kamchiliklarni halol ko'rsatadi. Muhimi shundaki, u tarixiy shaxslarga mamlakat taraqqiyoti, obodonchilik ishlarida, fan, adabiyot va san'atni yanada rivojlantirishda ko'rsatgan xizmatlariga qarab baho beradi.⁵⁷

“ Boburnoma “ da ilm-fan, san'at, adabiyot ahli xususida keng fikr yuritilgan. Kitob muallifi Alisher Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn Muammoiy, Shayhimbek Suxayliy, Ahmad Hojibek, Begzod, Shoh Muzaffar, G'ulom Shodiy, Husayn Udiy kabi shoirlaru san'atkorlar haqida ma'lumotlar beradi, asarlaridan namunalar keltiradi. Ularning hayoti, faoliyati, xulq-atvori haqida diqqatga molik tavsilotlarni hikoya qiladi.

Chunonchi, Bobur ulug' shoir va donishmand Alisher Navoiy haqida so'zlaganda uning Benazir shoirligini takidlab, turkey (o'zbek) tilda she'rini hechkim unchalik ko'p va yaxshi yozmaganligini shuningdek ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga hech kim Navoiychalik g'amxur va murabbiy emasligini alohida qayd etadi. Hisor haqida gapirganda bu yerda yuzaga kelgan adabiy muhit va unga homiylar nomlari birma bir tilga olib o'tiladi. Ma'lumki muhitni bu adabiy muhit vakillari erishgan o'lkan muvaffaqiyatlarni Navoiysiz, uning xizmatlarisiz tasavvur etish mumkin emas. Bobur Navoiyning binokorlik va obodonchilik sohasidagi

⁵⁶ Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent. Sharq.2002-yil 128-bet.

⁵⁷ Abdullayev M. Boburnoma va Shajarai turkning qiyosiy poetikasi. 56-58-bet.

faoliyatini, Husayn Bayqoro bilan o'g'illari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishdagi tadbirlarni bayon etadi.⁵⁸

Asarda biror tarixiy voqea bayonidan oldin yoki bayon jarayonida chekinilib shu voqea yuz berayotgan joy tasvirlanadi. Natijada o'quvchi nazarida Bobur zamonidagi Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston o'lkalari ulardagi ko'plab viloyatlar, shahar va qishloqlarning tugal manzarasi yer suv va Toru cho'llari, dala dashtlari, bog'u rog'lari, ekinzorlar, ob-havosi navototi, odamlari, qabila va xalqlarning urf odatlari, turmush tarsi, kiyinishi, ovqatlari, tili, shevasigacha namoyon bo'ladi. Binobarin bunday o'rinlarda Bobur nafaqat istedodli shoir va yozuvchi, ayni paytda sinchikov va bilimdon olim, jug'rof, etnograf, tabiatshunos, tilshunos, san'atshunos sifatida ham ko'rinadi. San'atkor ajib joylar tasvirida kichik tavsilotlarni ham etibordan qochirmaydi, viloyatlar, shahar, qishloqlar manzarasini gavdalantiruvchi go'zal realistik lavhalar chizadi.

Andijon, Samarqand va boshqa shaharlar tasviri bunga yorqin misoldir. Bobur 1494-yil voqealarini otasining halokati va uning o'rniga o'zining taxtga o'tirishi, amakisi Sulton Ahmad Mirzo va tog'asi Mahmudjonning (qaynata kuyovning) Bobur ustiga qo'shin tortishi biroq yosh hukmdordan shikoyat yeb sulx tuzushga majbur bo'lishlarini hikoya qilishdan oldin Farg'ona bekligi va uning yetti shahrini tasvirlaydi. Viloyatning eng katta shahri va poytaxti Andijon tasviri g'oyat jonli va badiiy tasvir vositalariga boydir. Tasvirda Andijonning jug'rofiy o'rne, chegaralari, g'allasi mo'l, mevalarga boyligi, ayniqsa qovuni va uzumi yaxshi bo'lishi, qovun pishig'ida poliz boshida qovun sotish raim emasligi, shahar darvozalari, shaharga to'qqiz ariqdan suv kirib, biron yordam chiqib ketmasligi, qalaning atrofi butkul mahallalar bilan o'ralganligi, qalani muhofaza etuvchi suv to'ldirilgan aylana handak bilan mahallalar orasida keng tosh yo'l tushganligi, ov qushlari ko'p va semiz bo'lishi va hokozalar haqida juda sodda mazmunli hikoya qilinadi. Shahar xalqi turkligi, shahar va bozorda turkiy tilni bilmaydigan kishi yo'qligi, aholi lahchasining adabiy tilga o'rinligi Mir Alisher

⁵⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. 1989-yil

Navoiy asarlarning Hirotda shuhrat qozonganligining sababi ham ularning turk tilida yozilganligi xususida Bobur o'zgacha bir iftixor bilan so'zlaydi.⁵⁹

Boburning oilasi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, undan to'rtta o'g'il qolgan. 1. Muhammad Humoyun Mirzo, uning taxt vorisi, 1508-yil 5-aprelda tug'ilgan. 2. Kamron Mirzo, 3. Hindol Mirzo, 4. Askariy Mirzo. Eng kichik o'g'li Anvar bolaligidayoq vafot etgan. Boburning bir necha qizlari bo'lib, ularning tug'ilganligi haqida ma'lumot saqlanib qolmagan. Ularning ba'zilar saroy amaldorlariga turmushga chiqqanligi haqida ma'lumotlar saqlangan.

1. Oysha-Sulton begimdan tug'ulgan qiz, qancha vaqt yashamay vafot etgan.
2. Ma'suma-Sulton begimdan tug'ilgan qiz. Bu qizning ismi ham Ma'suma Sulton Begim bo'lib, u chaqaloqligidanoq onasi vafot etgan. Bu qiz Xirot hukmdori Sulton Husayn Mirzo Bayqaroning nevarasi bo'lmish Badiuzzamonning o'g'li Muhammad Mirzo Zamonga kuyovga chiqqan.
3. Gulbadan Begim-Humoyunnig singlisi, mo'g'ul xonlaridan bo'lmish Xo'ja Xizrga turmushga chiqqan.
4. Gulrang begim-Xumoyunning ikkinchi singlisi bo'lib, Nuriddin Muhammad Mirzoga turmushga chiqqan. Ularning qizi Salima Sulton Begim avval Bayramxonga, uning vafotidan so'ng esa, o'zining qarindoshi Akbarshohga tekkan.
5. Gulchehra Begim- Humoyunning eng kichik singlisi, akasi hukmronligi davrida o'zbeklar sultoni Abbos Sultonga turmushga chiqqan.
6. Shahribonu Begim- Boburning eng kichik ukasi Nosir Mirzoning o'g'li Yodgor Nosir Mirzoga tekkan. Ularning Sanjar Mirzo ismli o'g'li ham bor bo'lishi kerak. Boburning yana boshqa qizlari ham bo'lgan, ulardan biri Boburning vafoti oldidan taxtni egallashga urinib ko'rgan Ziyod Mahdi Xo'jaga turmushga chiqqan.

Boburning xotinlari yoki uning xaramidagi kanizaklari haqidagi aniq ma'lumotga ega emasmiz. Bizga ma'lum bo'lganlari quyidagilardir:

⁵⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. 1989-yil

1. Oyisha Sulton Begim- Boburning tog'asi Samarqand hokini Sulton Ahmad Mirzoning qizi. U besh yoshga kirganidayoq Boburga unashtirib qo'yilgan edi. Undan bitta qiz tug'ilib, birnecha kundan so'ng vafot etgan.
2. Zaynab Sulton Begim – Boburning kichik tog'asi Xisor hokimi bo'lgan Sulton Mahmud Mirzoning beshinchi qizi. Unga Bobur Qobulni qo'lga kiritgandan keyin uylangan. Ikki-uch yildan so'ng u chechak kasali bilan vafot etgan.
3. Ma'suma Sulton Begim – Boburning birinchi xotini bo'lmish Oysha Sulton Begimning eng kichik singlisi. Oysha Sulton Begimning vafotidan so'ng Bobur uni Hurosonda uchratib qolib, o'ziga turmushga chiqishini so'radi va Qobulga kelib unga uylandi. Undan Ma'suma ismli qiz tug'ilib, u chaqaloqligidayoq onasi vafot etgan.
4. Mohin Begim – Hirot shohi Sulton Husayn Mirzo (Boyqaroning) qarindoshlaridan bo'lib, “ Akbarnoma “ da aytilishicha, Humoyun Mirzo, Gulbadan Begim , Gulrang Begim va Gulchehra Begimlarning onasi bo'lgan.
5. Dildor Og'acha Begim – Hindol Mirzoning onasi (“Akbarnoma”)
6. Raika Begim – Boburning vafotidan so'ng beva qolgan va Qobulda yashagan.
7. Yusuf – Zay afg'onlarning sardori Malikshoh Mansurning qizi.⁶⁰

⁶⁰ Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent. Sharq.2002-yil 129-bet.

XULOSA

Tarixning shohidlik berishicha, insoniyat tarixida yuksak iz qoldirgan, keyingi avlodlarga o`zining jamiyatdagi mavqei, ilmiy, badiiy merosi bilan ibrat namunasi bo`la oladigan shaxslar dunyoga juda kam keladi. XV- XVI asr uzbek xalqi, adabiyoti, ma'naviyati tarixida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Mirzo Boburni bimalol ana shunday shaxslar qatoriga kiritish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur umrining o`zi avlodlarga ibrat namunasidir. U 47 yoshli qisqa, ammo ijodiy barakali, barkamol hayotida yuz yil yashab ham uddalab bo`lmaydigan ishlarni ado etdi.

Bobur o`z davrining shoh va shoirligidan tashqari, ulkan tarixchisi, etnografi, o`lkashunosi, biolog, geograf, dinshunos olimi sifatida ham dovuq topgan. Shariat ahkomlarini mukammal bilgan va bu borada ham risola yozgan. Arab alifbosining murakkab, o`rganish og`ir bo`lganligi bois, yangi «Xatti Boburiy» alifbosini yaratgan. Davlatchilikda vaqt me'yorlarini qayta ishlab chiqqan, pochta tizimiga qulay tarzda tartib bergan va yana qanchadan-qancha islohotlarni amalga oshirgan. Borgan yerida obodonchilik, bog'-rog' barpo etgan, Movarounnahr sivilisasiyasini Sharqda tarqatgan buyuk shaxsdir.

Bobur buyuk podshoh, bobosi Amir Temurning munosib vorisi sifatida uning saltanatini barcha o`ziga tegishli hududlarda qayta tiklash, yuksak saltanatni dovuqsiz, manmanlikka berilmay barpo etish va davlatchilik ishlarini amalga oshirishni umr maqsadi etdi. U mohir sarkarda sifatida eng og`ir bo`lgan davrlari: qarindosh-urug`lari, bek va safdoshlari chap berib, bundan taxtni olishga intilib,

nochor qolgan holida ham maqsad sari intildi. Boburning bu xislati, kelajakka umid bilan qarashi bugun ham ibrat namunasi bo`lib xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Mirzo Boburning “Boburnoma” asarida Temuriylar sulolasi haqida Amir Temur va Mirzo Ulug`bek tomonidan barpo etilgan inshootlar, madrasalar, bog`u-rog`lar, masjid xonaqo, hammomlar shuningdek Samarqand iqlimi, aholisi haqida ma`lumotlar qoldirgan.

Bobur davlatchilik siyosatining bosh kaliti - temuriyzoda Sulton Husayn Boyqaro kabi faqat o`z hukmronligiga qarashli joylarda tinch-osoyishta hayotni saqlash, saltanatini mustahkam qo`rg`onlar, yetuk askar, zobitlar bilan ta'minlash, ilm-fan, adabiyot va san'atga yuksak e'tibor berishdangina iborat deb bilmadi. Uning buyuk niyati, bobosi Amir Temur saltanati tasarrufida bo`lgan yurt va yerlarni qayta egallash, muhim, yagona davlatchilik siyosatini yuritish, parokanda temuriyzodalarni bu maqsad sari birlashtirishdan iborat edi. U shu yo`lda siyosiy tanglik, murosasizlik, ayniqsa buyuk Temurdan qolgan hudud, boylik va mansablar sari olib borilgan kurashlarga barham berib, barchasini bir bayroq ostida birlashtirish uchun intildi. Bunga ko`p jihatdan erishdi ham, lekin armon bo`lib qolgan niyatlari ham kam emas.

Bobur tomonidan davlat boshqaruvida ko`pgina xalqparvar amru farmonlar e'lon qilindi. Ularning eng namunalisi «ikki azimush-sha'n» farmonlar edi. Birinchi farmonda Boburning davlatchilik maromi, podshoq sifatida etuklikka erishgani, eng muhimi qo`l ostidagi fuqarolarning kim, qaysi millat, dinga taalluqli bo`lishidan qat'iy nazar tamg`a soliqidan ozod etdi. Ikkinchi farmoni vafotidan ikki yil oldin butun saltanatida sharob ichishni qat'iyan man etilgani bo`ldi. Boburning bu ikki farmoni xalqparvarligi, inson manfaati, uning sog`liq va axloqiy barkamolligi kabi xususiyatlarini shaxs xarakterida mujassamlashtirishiga qaratilganligi bilan bugungi kunda qam qimmatini yo`qotgani yo`q.

Boburning davlatchilik va yuksak harbiy maqorati Sharq va g`arb olimlari, tarixchilari tomonidan tan olingan. Bu borada tarixchi Pave de Kurteylning qarashlari fikrimizga dalildir: «har qanday sinovga bardosh bera oluvchi, iroda va matonatni o`zida mujassamlashtirgan bu zot o`zida harbiy hiyla va jasoratni

uyg'unlashtira olar, zarur bo'lganda jazolashga ham va afv etishga ham qodir edi: u iste'dodli harbiy arbob va ishning ko'zini biladigan, qo'shnlarni mahorat bilan boshqara oladigan, ularning ishonchini qozona olgan sarkarda edi».

«Boburnoma»da muallif eng avvalo shuni ko'rsatadiki, u hali yosh paytidan boshlab ushbu kasb sirlarini o'rganishga, yo'l qo'ygan xatolarini darrov tan olib, ochiq bayon etishga, tuzatishga harakat qilgan. Bobur barcha qo'l ostidagi shaxslar, raqib va dushmanlarining har bir harakatida diplomatik nazokatni kuzatdi, baholadi. O'zining jamiyat, saltanatdagi mavqeini aynan temuriylar diplomatik qoida-qonunlari zaminida, o'z saltanatidagi yangi tartib va qoidalar bilan to'ldirib bordi. Unga hamma bo'ysunishini talab qildi va o'zi ham bu tartibga rioya etdi.

Zahiriddin Bobur davlat boshqaruvida ayol shaxsiyatiga yuksak e'tibor bilan qaratgan. Uning ayollar qadr-qimmatini joyiga qo'yish, izzatlarini bajo keltirish, zarur bo'lganda Qutlug' Nigorxonim, Esan Davlatbegim, Xonzodabegim va boshqa ayollar bilan davlat ishlari muammolariga oid masalalarni bamaslahat ado etgan, ularning fikrini inobatga olgan. Boburning qizi Gulbadanbegim «Humoyunnoma» asarida yozishicha, Bobur Agrada davlat ishlari bilan band bo'lgan paytda Xurosondan xotini - Humoyunning onasi Mohim begim tashrif buyurgani va u allaqachon saroyga yaqinlashib qolganligi xabari Boburga etkaziladi. Shunda Bobur barcha yumushlarini qoldirib, xotini tomon ot yugurtiradi. U ayoli kelayotgan karvonni ko'rib, otidan tushib, xotini tomon oshiqadi, uni otidan tushirib, o'z otiga mindiradi va ot jilovini olib, o'zi yayov, saroygacha etaklab keladi. Podshoqning bu harakati saroy ahlining ayrimlariga yoqmaydi va ularning e'tirozlariga sabab bo'ladi. Shu misolning o'zi ham Bobur o'z davridan ancha ilgarilab ketganligi, oilaviy munosabatda samimiyat ustun bo'lishini bildirganki, bu hozir ham yoshlarimizga ibrat darsidir.

«Boburnoma»da muallif alohida, yoki ataylab o'sha davrdagi diplomatik tartib-qoidalar, rasm bo'lgan tartiblar haqida fikr bildirmagan. Mazkur asarni qayta-qayta mutolaa etganimiz bizga ushbu masalani bo'lib o'tgan voqea-hodisalar

ichidan, turli yillarda sodir bo'lgan voqealarning mantiqiy birligiga asoslangan qolda ma'lum yaxlitlikka erishishga olib keldi, degan umiddamiz.

Bobur qoldirgan hisobsiz adabiy, ilmiy, tarixiy asarlari, «Aruz risolasi» she'riy devoniyu nazmiy asarlari, Xoja Ahrori valining «Validiya» asarining forschadan o'zbek tiliga o'g'irgani, musiqa va harb ilmiga oid asarlari (hali topilmagan) bemalol unga umrbod shuhrat keltirdi va kelgusi avlod ham bundan bahramand bo'lishiga shubha yo'q.

«Boburnoma» - keng ummon! Unda keltirilgan faktu raqamlar, 1560 dan ortiq shaxslarning tasviri, keng ko'lamli bir necha mavzularga taalluqli. Boburning bir voqea, hodisa, joy tasvirida bir necha qarashlari, badiiy tasvirlariga sharh berish, ilmiy xulosalarga kelish, usha davr murakkabliklarini hisobga olish lozim. Buni Boburning yuksak mahorati, asar personajlari xarakterini murakkab davrning ruqshunos shaxsi sifatida baholashi deb qabul qilish mumkin. Shuning uchun Husayn Boyqaro Shayboniyxon, Shohbegim, Xisravshoh, Boqi Chaqoniyoniy Ibroxim Lo'diy, Muhammad Husayn mirzo va boshqalarning xususiyatlarini har tomonlama, mavzu zaruratiga mos jihati bilan ochib berish uchun bir necha joyda foydalanildi, Tabiat va nabo- tot, relief tasvirlari, davlat boshkaruvi, Boburga xiyonat, dinlomatik munosabatlar, shaxe xakteri kabi mavzularni oydinroq yoritish uchun qam goq-goqida shu uslub qo'llanildi.

Biz Boburning «Boburnoma» asari, uning ijodi bilan bogliq boshqa asarlari, zamondoshlari qoldirgan nodir asarlarga ham zarurat bois murojaat etdik. Bu bilan buyuk shaxsning davlat boshqaruvi, davlatchilikda shaxe mavqei, XU-XU1 asrda diplomatik munosabatlar va undagi tartib-qoidalar qaqida qurbimiz yetguncha fikr bildirdik. Bu mavzu ummon, biz undan qisman baqramand bo'ldik, xolos. Uni yanada teranroq, mazmunliroq tadqiq etishni qobiliyatli yoshlarimiz, shogirdlarimizga qoldiramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «Boburnoma» asari Zahiriddin Muhammad Mirzo Bobur tomonidan yaratilgan ijod namunalari ichida o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu asarni boshqa tarixiy asarlar bilan ilmiy tahlil etish va o'rganish, ko'plab jiddiy tadqiqotlarni talab qiladi. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.

Karimovning quyidagi fikrlarini eslash kifoya: "...muhim bir fikrni xulosa tariqasida ta'kidlashni zarur, deb bilaman. Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi-takroran aytishga to'g'ri keladi-o'ziga xos fenomen, noyob xodisadir"⁶¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . Toshkent. 1998-yil.
2. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent. - 1999.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.- Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008.
4. Karimov.I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011- yil.
5. Abug'oziy. Shajarai turk. Toshkent. "Cho'lpon".1992-yil.
6. Abdullayev M. Boburnoma va Shajarai turning qiyosiy poetikasi.
7. U. Erskin. Bobur Hindistonda.Toshkent. "Cho'lpon nashriyoti". 1995-yil.
8. L.P. Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. "Ma'naviyat" 1998-yil.
9. Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi-1994-yil.
- 10.Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. "Fan".1994-yil.
- 11.Hasanov. X. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. "O'zbekiston". 1983-yil
- 12.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. "O'qituvchi" – 2008-yil.
- 13.Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Tosh. "Sharq". 2011-yil
- 14.Fayziyev.T. Temuriy malikalari. Toshkent 1994-yil

⁶¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.- Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008. 50-bet

- 15.Hasanov. H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. Toshkent. “O’zbekiston”.1983-yil.
- 16.Rasulov R. Bobur – o’zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi. /Ilmiy to’plam. Samarqand. 2000-yil.
- 17.Nafasov T. Bobur nomshunos. / Ilmiy to’plam. Samarqand 2000-yil.
- 18.Mamajonov A.M. O’zbekiston tarixi. Toshkent. 1994-yil.
- 19.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. I-II-qism 1948-1949-yillar nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. S. Mirzayev.
- 20.Fayziyev T.Xusayn Bayqoroning sirli o’limi. Toshkent 1995-yil.
- 21.Ibn Battuta va uning O’rta Osiyoga sayohati. Nashrga tayyorlovchi N. Ibrohimov. Toshkent 1996-yil
- 22.T. Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent. Yozuvchi-1995-yil.
- 23.Vahob Rahmonov “ Ma’rifat “ gazetasi 2008-yil.
- 24.Tarixiy manbashunoslik muammolari. Toshkent. 2008-yil.

Интернет сайтлари:

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ахбороти.

www.press-service.uz.-Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати. Мазкур сайтда Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримовнинг асарлари жамланган.

ula.uzsci.net. - «Ўзбекистон фан ва таълими» журнали.

uzbekistan.uzpak.uz.-Буюк ипак йўли давридан мустақиллик даврига қадар бўлган Ўзбекистон тарихига оид сайт.

www.natlib.uz.turk|- Туркистон тўплами.

history.uzsci.net - Тарих институти «Ўзбекистон тарихи» журнали.

<http://ursu.uzpak>|- Ушбу сайтларда Темур ва темурийлар

<http://www.rambler.ru> - тарихига оид маълумотлар бор.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-8 betlar
I.BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA SIYOSIY-ILMIY FAOLIYATI.....	9-47 betlar
1.1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va siyosiy faoliyati.....	9-31 betlar
1.2. Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'rne.....	31-47 betlar
II. BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ BOBURNOMA” ASARI MUHIM TARIXIY MANBA.....	48-74 betlar
2.1.Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma” asarining mazmun va mohiyati.....	48-58 betlar
2.2. Zahiriddin Muhammad Boburning “ Boburnoma” asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati.....	59-74 betlar
XULOSA.....	74-78 betlar
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR.....	79-80 betlar